



YANGI TAYINLANGAN ELCHILARGA SHARAFLI VA MAS'ULIYATLI FAOLIYATI HAMDA HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH ISHLARIDA KATTA ISHONCH BILDIRILDI

6-mart kuni xorijiy davlatlarning mamlakatimizga yangi tayinlangan elchilari tomonidan ishonch yorliqlarini topshirishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Favqulodda va muxtor elchilar — Misr Arab Respublikasidan Tamer Fatxi, Italiya Respublikasidan Pergabriyel Papadia de Bottini, Qirg'iz Respublikasidan Duyshonqul Chotonov, Belarus Respublikasidan Aleksandr Ogorodnikov, Gruziyadan David Kotariya va Turkiya Respublikasidan Ufuk Ulutashning ishonch yorliqlarini qabul qilib oldi.

Davlatimiz rahbari diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini yangi O'zbekistondagi sharaflı missiyasi boshlangani bilan samimiy tabrikladi.

Dunyoda ziddiyatlar keskinlashib, geosiyosiy raqobat kuchayib borayotgan hozirgi davrda do'st davlatlarning bir-birini qo'llab-quvvatlashi har qachongidan ham muhim ekanini ta'kidlandi.

Bunday sharoitda O'zbekiston o'zining ochiq va pragmatik tashqi siyosati bilan o'zaro hurmat va do'stlikni mustahkamlab, dunyoning barcha mintaqalaridagi davlatlar, xalqaro tashkilotlar va global moliyaviy institutlar bilan amaliy sheriklikni rivojlantirmoqda.

Prezidentimiz umumiy siyosiy iroda tufayli Markaziy Osiyo yaxshi qo'shniçilik, ishonch va integratsiya mintaqasiga aylanib borayotgan alohida ta'kidlandi.

Joriy yilda O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarida raislik qilmoqda va Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan tarixiy sammitga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Bo'layotgan jadal o'zgarishlar tufayli mintaqamizga qiziqish tobora ortib, "Markaziy Osiyo plus" muloqot maydoni kengayib borayotgani ta'kidlandi.

Joriy yil aprel oyida mamlakatimizda "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti, may oyida esa "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab mamlakatlari" formatidagi ikkinchi uchrashuv bo'lib o'tadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida 11 ta rezolyutsiya qabul qilingani alohida qayd etildi.

Joriy yilda mamlakatimizda Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley assambleyasi va UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkazilishi, 2027-yilda O'zbekiston Qo'shilmalik harakatiga raislik qilishi ham davlatimizning xalqaro maydondagi nufuzi tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi.

O'tgan yili jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 35 milliard dollarni tashkil etib, eksport 27 milliard dollardan oshgan. Yangi innovatsion formatda o'tkaziladigan Toshkent investitsiya forumiga tayyorgarlik ko'rilmogda.

— Islohotlarimizdan ko'zlangan asosiy maqsad — har bir inson manfaatlarini ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish, "kelajak iqtisodiyoti" va ilg'or infratuzilmani barpo etish, jozibador investitsiya va ishbilarmonlik muhitini ta'minlashdan iborat. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida belgilab olgan ulkan maqsad va rejalarimizni amalga oshirish uchun bizda yetarli salohiyat va imkoniyatlar, eng muhimi, kuchli intilish va siyosiy iroda bor, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlagani uchun

diplomatik missiyalar rahbarlari vakillik qilayotgan mamlakatlar hukumatlariga minnatdorlik bildirildi.

Davlatimiz rahbari Misr Arab Respublikasi elchisiga murojaat qilar ekan, ushbu mamlakat O'zbekistonning Yaqin Sharqdagi ishonchli hamkori ekanini ta'kidlandi.

Siyosiy maslahatlashuvlar muntazam ravishda o'tkazilmogda. O'tgan yili Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, 3 ta yirik biznes forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Ikki mamlakat yetakchi kompaniyalarining kooperatsiyasi kengaymogda.

Misr Prezidenti Abdulfattoh as-Sining mamlakatimizga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda yangi davrni boshlashda muhim voqea bo'lishi ta'kidlandi.

Misring yetakchi tashkilotlari va kompaniyalari ishtirokida energetika, kimyo, qishloq xo'jaligi, geologiya, turizm, to'qimachilik va boshqa tarmoqlarda qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish istiqbolari qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Arab davlatlari ligasining yaqinda o'tgan sammitida Misr Prezidenti tomonidan ilgari surilgan G'azoni tiklash rejasini qabul qilish tashabbusini yuqori baholadi.

O'zbekiston yetakchisi Italiya ulkan siyosiy va iqtisodiy salohiyatga ega muhim strategik sherik ekanini ta'kidlandi.

Bugungi kunda Italiya kompaniyalari bilan "yashil" energetika, kimyo, mashinasozlik, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, ta'lim va turizm sohalarida yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda.

Tashqi ishlar vazirlarining "Italiya — Markaziy Osiyo" formatidagi muloqoti davom etmoqda. Turin politexnika va Piza universitetlarining Toshkent shahridagi filiali samarali faoliyat yuritmoqda.

O'tgan yili birinchi marta yetakchi oliy ta'lim muassasalari forumi o'tkazildi. Yaqinda Rim va Viarejio shaharlarida O'zbekiston madaniyati kunlari bo'lib o'tdi.

Yaqin kunlarda Hukumatlararo ishchi guruh yig'ilishi va biznes forumi, Lombardiya gubernatorining O'zbekistonga tashrifi hamda Hududlar kengashi bo'lib o'tadi. Bundan tashqari, qo'shma investitsiya fondini tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Italiya Bosh vazirining mamlakatimizga javob tashrifini tashkil etish asosiy vazifa etib belgilandi.

Qirg'iziston O'zbekistonning yaqin qo'shni va strategik sherigidir.

Keyingi yillarda tovar ayiriboshlash hajmi 4 barobar ortdi, qo'shma korxonalar soni 300 taga yetdi. Hududlarda avtomobil zavodi, to'qimachilik fabrikalari, tibbiyot markazlari, agroklasteralar ishga tushdi.

O'tgan yil dekabr oyida "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li qurilishi boshlangani muhim tarixiy voqea bo'ldi.

Shu oyda Xo'jand shahrida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston yetakchilari ishtirokida uch tomonlama sammit bo'lib o'tadi.

Hukumatlararo va parlamentlararo komissiyalar, Hududlararo forum va Ishbilarmonlar kengashi faoliyati natijadorligini ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

Keyingi yillarda O'zbekiston — Belarus hamkorligi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

O'tgan yil fevral oyida Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning mamlakatimizga rasmiy tashrifi ko'p qirrali sheriklikni kengaytirishga qo'shimcha sur'at bag'ishladi.

Tovar ayiriboshlash hajmi izchil ortib bormogda, qo'shma korxonalar soni 240 taga yetdi. Yaqin kunlarda siyosiy maslahatlashuvlar, Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va ishbilarmonlik tadbirlari bo'lib o'tadi.

Davlatimiz rahbari qishloq xo'jaligi, elektrotexnika, yengil sanoat, sog'liqni saqlash, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida kooperatsiyani kuchaytirish zarurligiga alohida e'tibor qaradi.

Hududlararo, tibbiyot va ta'lim forumlarini samarali o'tkazish muhimligi qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti Gruziya Janubiy Kavkazdagi ishonchli hamkorimiz ekanini ta'kidlandi.

O'tgan yili tovar ayiriboshlash 50 foizga oshdi. Yuk tashish hajmi ortmogda, bank sohasidagi hamkorlik mustahkamlanmogda.

Hukumatlar va parlamentlar darajasidagi aloqalar faollashdi, madaniy va turizm almashinuvlari kengaymogda.

Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidzening kuni kecha O'zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi yakunlari ikki tomonlama munosabatlar rivojida yangi bosqich bo'lishiga ishonch bildirildi.

Tovar ayiriboshlashni yanada oshirish, logistika va tranzit, turizm, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va to'qimachilik sohalarida

kooperatsiyani kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratladi.

Joriy yilda hududlar biznes forumi, milliy mahsulotlar yarmarkasi, madaniyat kunlarini o'tkazish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Turkiya elchisiga murojaat qilar ekan, faol siyosiy muloqot tufayli ikki tomonlama munosabatlar keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko'tarilganini ta'kidlandi.

O'tgan yili tovar ayiriboshlash 3 milliard dollarga, o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 milliard dollarga, qo'shma korxonalar soni 2 mingtaga yetdi. Turkiyaning yetakchi kompaniyalari bilan iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yirik kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmogda. Toshkentda Turkiya davlatlar xalqaro universiteti tashkil etilmogda.

Yangi istiqbolli yo'nalishlar va aniq loyihalarni ilgari surish maqsadida joriy yilda O'zbekistonda oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishini tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Marosim yakunida davlatimiz rahbari yangi tayinlangan elchilarga sharaflı va mas'uliyatli faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi, sheriklikni mustahkamlash uchun mavjud barcha imkoniyatlardan samarali foydalanishga chaqirdi, hududlar va xususiy biznes vakillari bilan faol hamkorlik qilishni tavsiya qildi.

O'z navbatida, diplomatlar samimiy qabul va samarali faoliyati uchun yaratilgan sharoitlarga minnatdorlik bildirib, O'zbekiston bilan ko'p qirrali hamkorlikni faol ilgari surish yo'lida o'zlarining butun professional tajribasi va bilimidan foydalanishga tayyor ekanini ta'kidladilar.

O'ZA

YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGI: ORZULAR HAQIQATGA AYLANDI

Buyuk o'zbek yo'li

Kuni kecha davlatimiz rahbarining "8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. O'zining ko'p yillik samarali mehnati, yuqori kasbiy malakasi va mahorati bilan yangi O'zbekistonda barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida alohida tashabbus va ibrat ko'rsatib kelayotgan bir guruh opa-singillarimiz mamlakatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldi.

To'g'risi, ushbu ro'yxatda ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, texnika, iqtisodiyot, xavfsizlik kabi turli sohalarda fidokorona mehnat qilayotgan xotin-qizlar bilan bir qatorda ko'cha va xiyobonlarimizni, mahallalarimizni ozoda saqlayotgan zahmatkash, oddiy ayollar ham borligini

ko'rib, chin dildan quvondim. Quvonmay bo'ladimi? Axir mamlakatimizda xotin-qizlar jamiyatdagi mavqei, yoshi, millati, dididan qat'i nazar, davlatimiz e'tibori va ardog'ida.

[Davomi 3-betda](#)



8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni

YORUG' KELAJAK KAFOLATI, HAYOTIMIZ OY VA QUYOSHIDIR!

Mamlakat taraqqiyoti, jamiyat birdamligi onalar, umuman, xotin-qizlarning qanchalik qadr topayotgani bilan o'lchanadi. Chunki o'zligini tanigan odam, avvalo, oilasi, onasi, opa-singillari og'irini yengil qilish haqida o'ylaydi.

Bugun O'zbekistonda ayollarni qadrlash, ularga barcha shart-sharoitni yaratib berishga qaratilgan islohotlar zamirida ana shunday hayotiy haqiqat bor. Keyingi yillarda xotin-qizlar ta'limi, ularning bandligini ta'minlash borasida juda katta islohotlar qilindi. Ular ta'lim olsa, butun xalq bilimli bo'ladi, degan hayotbaxsh g'oya atrofida juda katta o'zgarishlarga yo'l ochilmogda. Buning natijasi ham juda tez ko'zga tashlana boshladi. Ayollar o'z o'mini topib, hatto rahbarlik lavozimlarida ham boshqalardan qolishmasligini isbotlamogda. Sport, ta'lim, tadbirkorlik kabi

o'nab sohalarda yetakchi ayollar sinfi paydo bo'ldi. Bulaming barchasi yangi O'zbekistonning qiyofasi, Uchinchi ReNESSans poydevoridir. Zero, ular yorug' kelajak kafolati, hayotimizning oy va quyoshidir!

"Yangi O'zbekiston" gazetasi 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tayyorlangan ushbu sonini yurtimizning ana shunday faol, jamiyat rivojiga o'ziga xos hissa qo'shayotgan ayollariga bag'ishladik.

[2-betga qarang.](#)



Korrupsiya — jamiyat tanasidagi saraton

Korrupsiya har qanday zamon va makonda yurt taraqqiyoti, odamlar farovonligiga g'ov bo'lib kelgan. Shu ma'noda, Prezidentimizning joriy yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashda bo'yicha milliy kengash yig'ilishidagi nutqi barchamizni bu illatga qarshi kurashda birdamlikka chaqirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki korrupsiyaga qarshi kurash har bir sof vijdonli insonning muqaddas burchidir. Mamlakatimizda so'nggi yillarda bu illatga qarshi kurashish bo'yicha tegishli qonunlar qabul qilinib, yangi tizim yaratildi. Qator tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

NURONIYLAR KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING OLDINGI SAFIDA BO'LADI

Rustam KALONOV,
"Nuroniylar jamg'armasining
Toshkent shahri bo'limi raisi,
senator:



Korrupsiyaga qarshi kurashning oldingi safida, albatta, nuroniylar turishi kerak. Harom bilan halolni yoshlarga bugun biz o'rgatmasak, ertaga kech bo'lishi shubhasiz. Shunday ekan, hammamiz yagona kuch bo'lib, Prezidentimiz atrofida jiplashib harakat qilsak, albatta, ijobiy samaraga erishamiz.

— Davlatimiz rahbari jamoatchilikka murojaat qilib, korrupsiyaga qarshi kurash umumimilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishi ekanini ta'kidladi.

Prezidentimiz juda to'g'ri qayd etdi. Korrupsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarash kerak. Eng asosiysi, butun jamoatchilik birlashib kurashishi zarur. Zero, bu xalqimiz, farzandlarimizning ertangi kuni, farovon hayoti uchun kurash masalasidir.

Prezidentimiz juda to'g'ri qayd etdi. Korrupsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarash kerak. Eng asosiysi, butun jamoatchilik birlashib kurashishi zarur. Zero, bu xalqimiz, farzandlarimizning ertangi kuni, farovon hayoti uchun kurash masalasidir.

ANIQ MANZILGA YO'NALTIRILGAN 55 TASHABBUS

Eldor TULYAKOV,
"Taraqqiyot strategiyasi"
markazi ijrochi direktori:



— Mamlakatimizda turli sohalaridagi izchil islohotlar samarasini ko'ryapmiz, sez-yapmiz. Aholi farovonligi oshmoqda. Davlat ko'rsatayotgan xizmatlar hajmi va sifati ortyapti. Eng muhimi, xizmat ko'rsatishda inson omili kamaymoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida Prezidentimiz bugungi islohotlar samaradorligiga muayyan ma'noda to'siq bo'layotgan, soya solayotgan g'ov korrupsiya ekanini alohida qayd etdi.

Ta'kidlash lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish masalasida ilk marotaba bunday ko'lami yig'ilish o'tkazildi. Davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi kuchli siyosiy irodani namoyon etdi. Ahmiyatli jihati, yig'ilishda aniq maqsadga yo'naltirilgan 55 ta tashabbus ilgari surildi. Ular doirasida 5 ta qonun, 12 ta farmon va qaror ishlab chiqildi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament, milliy va hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshirildi.

DABDABA VA HASHAMGA BERILGANLARNI TARTIBGA CHAQIRISH VAQTI KELDI

Serikbay USENOV,
Qozoq milliy madaniyat
markazi raisi:



— Avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishda har bir fuqaro faol bo'lishi kerak. Bunda, eng asosiysi, yosh avlodning ushbu illatga nisbatan fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarur.

Korrupsiya jamiyatda adolat-sizlik, tengsizlik va aholining noroziligini keltirib chiqaradi. Bu esa barcha sohadagi islohotlar natijasiga salbiy ta'sir etadi. Qolaversa, ayrim fuqarolarning huquqiy ongi hamda madaniyati yetarli emasligi, haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonini buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi tarixiy yig'ilishdan zarur xulosalar chiqardik. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugun biz korrupsiya bilan emas, uning oqibatlarini bilan kurashib yuribmiz. Aslida, uning oldini olish bilan shug'ullanishimiz kerak.

payti keldi deb o'ylaymiz.

Mahallalarda, milliy markazlarimizda tizimli ravishda jinoyatchilikka qarshi kurashish haftaliklarini o'tkazib kelamiz. Yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni qadrlash, kechagi kun bilan bugungi kunning farqini yaxshi tushunish, mahallada, to'y-ma'rakada ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, halollik va shukronalik bilan hayot kechirishni tushuntirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tuzib oldik. Bu borada jamiyatimizda to'plangan yaxshi tajribalarni keng targ'ib qilamiz.



-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni

YURTIMIZ AYOLLARIGA KO'Z TEGMASIN!



Farrux ZOKIROV,
O'zbekiston xalq artisti,
"Yalla" ansambli rahbari:

— Aytishga oson, lekin ijodiy faoliyatim boshlanganiga ham 60 yil bo'lyapti. Bu vaqtda "Yalla" ansambli bilan dunyoning hamma hududida bo'ldim. Biz bormagan davlatlarni sanasangiz, barmog'ingiz ortib qoladi. Bu gapni maqtanish uchun aytmayapman. Demoqchi bo'lganim shuki, hech bir joyda o'zbekistonlik ayollarga yetadigan yo'q. Qaysi millat vakilasi bo'lishidan qat'i nazar, eng farishtali, samimi, sadoqatli va go'zal ayollarga boy mamlakat — O'zbekiston!

Ayollar azaldan Sharqda alohida e'zozlangan, qadrlangan. Shoirilar ular ta'rifida ash'orlar bitgan, shohlar esa ayol sha'ni himoyasi uchun o'zaro jangga kirgan. Ularga atab obidalar bunyod etilgan, hofizlar madh etib, qo'shiq kuylagan, kuy yaratgan. Kaminaning ijodida ham ona, ayol, muhabbat va sadoqat mavzulari salmoqli o'rin tutadi. Qo'shiqlarimiz orqali o'z hurmatimizni izhor qilishdan hech qachon charchamaganmiz.

Ayol deganda har birimizning ko'z oldimizda, eng avvalo, onalarimiz namoyon bo'ladi. Ona — hayotdagi



Ayollari qadrlangan xalqning ertangi kundan ko'ngli to'q. Bugun xotin-qizlarga hurmatni har jabhada ko'ryapmiz. Yuqorida aytganidek, o'zbek ayollari dunyoda tengsiz ekaniga qayta-qayta amin bo'lganman. Shunday ekan, ulardagi samimiyyat, go'zallik, muhabbat va sadoqatga hech qachon ko'z tegmasin!

haqiqiy yo'lbo'shchi, insonning birinchi ustosi va yordamchisi. Uning muhabbati cheksiz, bag'rikeng va mehri haddan tashqari mukammal. Ona — farzandning birinchi do'sti, yolg'izlikdagi hamrohi va qiyinchilikda quvvat manbai. Uning himoyasi va sabri har qanday og'irlikni yengishga yordam beradi.

Onam Shoista Saidova musiqali drama teatrida faoliyat yuritgan, taniqli xonanda edi. Oilamizda ajoyib muhit hukm surgan. Biz — aka-uka, opa-singillar ahil-inoq bo'lganmiz. "Farzandlarim, bizdan keyin ham shu fazilatigizni saqlab qoling", deya ko'p nasihat qilardi onam. Eski shaharda — hamma bir jamoa bo'lib, muloqot qilib yashaydigan, shodlikni ham, qayg'uni ham bo'lishadigan joyda ulg'aydim. Hayotda ega bo'lgan barcha yaxshi jihatlarni ota uyida oldim. Xonadonimizda o'z davrining ilg'or ziyolilari, san'atkor olimlar, davlat arboblari ko'p mehmon bo'lardi. Ularni kutib olish, osh-noniga qarash, mezbollikni joyiga qo'yish onamning zimmasida edi.

Vaqt kelsa, onam erkaklar vazifasini ham bajargan, qattiqo'l — badiiy kengash

rahbari kabi edi. Hamma narsa nazoratida bo'lgan. Axir olti farzandni voyaga yetkazish o'zi bo'ladigan ish emas. U to'g'riso'z, dangal, riyokorlik nimaligini bilmaydigan, o'ylaganini odamning yuziga aytadigan ayol edi.

O'tgan yili poytaxtimizda milliy estrada san'ati asoschisi Botir Zokirov haykali ochilish marosimi o'tkazildi. Tadbirda davlatimiz rahbari ishtirok etib, 29 yoshida O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan, 30 yil og'ir dard bilan kurashgan va shu holatda ham kuylashdan, hayotni madh etishdan to'xtatmagan metin irodali san'atkor xotirasi abadiyatga muhlangani bilan san'atsevar xalqimizni tabrikлади.

Men o'sha damda onam haqida o'yladim. Akam Botir Zokirov va onam Shoista Saidovanning ruhi shodlanayotganini his qildim. Axir poytaxtimizning qoq markazida, Botir Zokirov ko'chasi yuzida, konservatoriya ro'parasida akamning haykali o'rnatildi. Konservatoriya huruzida uning nomidagi institut ochilishi esa tarixiy hodisa bo'ldi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



HAR KUNIMIZ BAYRAM BO'LSIN!



Sharofat NORIYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
tadbirkor:

— Xalqaro xotin-qizlar kuni men uchun eng katta bayram. Chunki shu bayram kunlari juda ko'p ayollarni tabriklashda g'oyibona ishtirok etaman. Opa-singillarimiz bizning mehnatimiz samarasini bo'lgan gullarni katta hayajon bilan qabul qilib oladi. Har yili bayramda biz parvarish etgan gullar ayollarga quvonch bag'ishlaydi. Boisi, o'tiz yildan beri gul yetishtiram.

Asli kasbim — hamshira. Ammo hozir kasbim ham, unvonim ham tadbirkor. Bu biznesga gul yetishtirish orqali kirib kelganman.

Ko'p bolali oddiy dehqon oilasi farzandim. Bu kasb ota meros. Gulga mehr otamdan o'tgan. Avval gulni uyda o'zimiz uchun yetishtirganmiz. Qishloq ahlining daromadini dehqonchilik bo'lgani uchun ishdan bo'sh vaqtlarim bozorda gul sotganman. Shunday qilib, gulchilik ikkinchi kasbimga aylandi.

Dastlab gul yetishtirish fermer xo'jaligi tashkil etdim. Mamlakatimizda yangi davr boshlangach, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga bo'lgan e'tibordan ilhomlandim. "Gulchi opa tomorqa xizmati" agroklasterga asos soldim. Klaster tarkibida bir qancha issiqxonalar, biogumus o'g'it tayyorlab berish, eshik romlar yasash sexi, umumiy ovqatlanish va boshqa madaniy-



maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyatini yo'lga qo'yidik. Qishloq'imiz farzandlari uchun zamonaviy sharoitga ega 100 o'rinni maktabgacha ta'lim muassasasi ochdik.

Klaster tarkibidagi korxon va muassasalarimizda 100 dan ziyod doimiy, qariyb 300 ta mavsumiy ish o'rni yaratilgan. O'quv markazi tashkil etib, nafaqat viloyatimiz, respublika bo'ylab ishsiz ayollarni hunarga, tadbirkorlikka o'rgatayapmiz. Bizda o'qigan xotin-qizlarning ko'pchiligi hozir tadbirkorlik qilmoqda. Ular telefon qilib yoki kelib rahmat aytisa, minnatdorlik bildirsa, o'zimizda yo'q xursand bo'laman.

Shukur, mamlakatimiz tinch, obod.

Barcha islohotlar xalqimizning yanada yaxshi va baxtli yashashiga qaratilgan. Yaratgan sendan harakat, mendan barakat. Ushbu so'zlar to'g'riligiga yana bir bor ishonch hosil qildim. Kim mehnat qilsa, kam bo'lmaydi. O'zimizdan qiyos, makaronna mehnatim sabab "Mehnat shuhrati" ordeni, "Shuhrat" medali, "O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor" faxriy unvoni bilan taqdirlandim. Hozir xalq deputatlari Jizzax viloyati kengashi deputatiman. Bu e'tiroflarga mirishkor dehqon bo'lgan otamning o'g'itlari, turmush o'rtog'imning qo'llab-quvvatlashi, farzandlarimning ko'magi bilan erishdim. Ayol uchun baxt shu-da.

Hayotimni o'zgartirgan gullarni sevaman. Yurtimizga, farovon hayotimizga, bayramlarimizga gullar yarashadi. Aslida, mamlakatimizning har kuni bayram, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu kunlarning qadriga yetaylik. Umr bog'imizni doimo gullar bezatib tursin.

YAXSHILIGI BEMINNAT, MEHR DARYOSI TILSIM

Shahzod
XUDOYBERDIYEV,
"Kelajak bunyodkori"
medali sovrindori:



— Qachondir, qayerdadir o'qigandim: har bir muvaffaqiyatli erkakning ortida buyuk bir ayol turadi.

Yangi O'zbekistonning fidoyi va el xizmatiga

shaylangan farzandi sifatida o'zimni baxtli va omadli, kichik bo'lsa-degan yutuqlarga erishgan deb his qilaman. Bu natijalar onam Dilorom Xudoyberdiyevaning mehri, tarbiyasi, duosi sababdir.

Nega desangiz, bolalik va o'smirligimda respublika tanlovlarida g'olib bo'ldim. 18 yoshimda mahalla raisi, 19 yoshimda Xalq deputatlari tuman kengashi deputatligiga saylandim, hozir Xalq deputatlari viloyat kengashi deputati hamda Yoshlar ishlari agentligi Sho'rchi tumani bo'limi boshlig'i vazifasida ishlayapman.

2024-yil 30-iyun — Yoshlar kuni arafasida davlatimiz rahbari qo'llaridan "Kelajak bunyodkori" medalini qabul qilib oldim.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga, el-yurtimizga mehr va sadoqat, namunali xulqi va odobi hamda vatanparvarlik

fazilatlari bilan tengdoshlariga har tomonlama o'rmaq bo'lib kelayotgan tashabbuskor va yetakchi yoshlar qatorida men ham taqdirlanganimdan behad xursand edim.

Bilasizmi, ana shunda mendan ham ko'proq xursand bo'lgan, kunu tun quvonib uxlovlagan birgina inson bor edi. U — onam. Dunyo daholarini tarbiyalagan onalar farzandlarini qanday yuzaga chiqarar ekan deb o'ylayman. Biror sir-asrori bormikan, degan savol xayolimga kelganda, uning formulasi oddiylikni ham tushunaman. Onalar bizni nafaqat dunyoga keltiradi, mehrdan, ilmdan, qanoatdan, tarbiyadan, yuksak orzu-umidlardan qanot yasab ulg'aytirib, parvoz qilishimizga ham asosiy sababchidir.

Onamning aytishicha, aqlimni taniy boshlaganimdan qo'shiq shubhatlarni tinglashni yoqtirarkanman. Televizor orqali siyosiy mavzudagi ko'rsatuvlarni tomosha

qilish sevimli mashg'ulotim bo'lgan ekan. Ko'pchilik ko'shni ayollar: "Bolangiz juda odamovi, salomatligi yaxshimi, boshqa bolalardan ko'cha chaqatib o'ynasa bo'lmaydimi?" deb e'tiroz qilganida, onam unam ekan.

Yillar o'tib, yosh boshim bilan mahallada rais bo'ldim, uyimiz eshigi oldi doim shaylangan farzandi sifatida o'zimni baxtli va omadli, kichik bo'lsa-degan yutuqlarga erishgan deb his qilaman. Bu natijalar onam Dilorom Xudoyberdiyevaning mehri, tarbiyasi, duosi sababdir.

Nega desangiz, bolalik va o'smirligimda respublika tanlovlarida g'olib bo'ldim. 18 yoshimda mahalla raisi, 19 yoshimda Xalq deputatlari tuman kengashi deputatligiga saylandim, hozir Xalq deputatlari viloyat kengashi deputati hamda Yoshlar ishlari agentligi Sho'rchi tumani bo'limi boshlig'i vazifasida ishlayapman.

2024-yil 30-iyun — Yoshlar kuni arafasida davlatimiz rahbari qo'llaridan "Kelajak bunyodkori" medalini qabul qilib oldim.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga, el-yurtimizga mehr va sadoqat, namunali xulqi va odobi hamda vatanparvarlik



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Buyuk o'zbek yo'li

YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGI: ORZULAR HAQIQATGA AYLANDI



Tanzila NORBOYEVA,
Oliy Majlis Senati Raisi,
Xotin-qizlarning jamiyatdagi
rolini oshirish, gender tenglik
va oila masalalari
bo'yicha respublika
komissiyasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Ko'pchilik uchun yangilik bo'lmas ham, aytay. Biz ko'p yillar 8-martni asosan, latofat va go'zallik bayrami sifatida nishonlab keldik. Bugungi kunda ushbu sana ayollarning jamiyatdagi o'rini e'tirof etish, samarali mehnatlarini ulug'lash hamda gender tengligini ta'minlash ayyomi sifatida ham qadr topmoqda. Binobarin, yangi O'zbekistonda ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida xotin-qizlar huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy muhofazasi va gender tengligini ta'minlash masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotadi.

Darhaqiqat, bugun yurtimizda ayollarni qo'llab-quvvatlash masalasi bundan 10 yillar oldin bo'lgani kabi, faqat ma'ruzayu hujjatlarda qolib ketayotgani yo'q. Aksincha, xalqimiz hayotini tubdan o'zgartirayotgan, ertangi kuniga umid uyg'otayotgan xalqchil islohotlarning farabaxsh epkini juda ko'plab opa-singillarimiz o'z taqdiri misolida his qilib, sezib turibdi.

Xo'sh, avvallari qanday edi, degan haqli savol tug'ildi. Albatta, yaxshi qonunlarimiz, yaxshi niyatlarimiz bor edi. Ammo ularni hayotga tatbiq etish uchun xohish ham, rag'bat ham yo'q edi rahbarlarda. Ayolning jamiyatdagi roli va ahamiyatini oshirish uchun ko'p ishlar qilindi, lekin hammasi ham kutilgan natijani bermadi. Masalan, tadbirkorlik qilmoqchi bo'lgan ayollar uchun imkoniyatlar qog'ozda bor, ulardan foydalanish oson emas edi. Imtiyozlar, qo'llab-quvvatlash tizimlarini ishga tushirish borasidagi aniq reja va harakatlari yetishmadi. Natijada ko'plab ayollarning jamiyat hayotidan uzilib qoldi, o'z o'rinlarini topa olmadilar.

Bu muammolar tarbiya va ta'lim tizimida ham ko'zga tashlandi. Qiz boladan ko'ra, o'g'il bolaning kelajagi haqida ko'proq qayg'urildi: uni o'qitish kerak, unga sharoit yaratish kerak, chunki u — oilaning boquvchisi. Qiz bolaga esa "O'qib nima qiladi, birovning xasmi bo'lsa", degan qarash kuchaydi. Ammo qizlarimiz bilimli, ma'lumotli bo'lsa, bu nafaqat ularning, balki kelgusi avlodlarning taqdiriga ham ijobiy ta'sir qilishini unuttik.

Davlatimiz rahbari bu og'riqli muammolarni Prezident etib saylangan ilk kummlaridanoq bosqichma-bosqich hal etishga kirishdi. Mana, oradan to'qqiz yil o'tib, yangi O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, ularga keng imkoniyatlar yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini bera boshladi.

Xotin-qizlar ta'lim, davlat boshqaruvi, tadbirkorlik va jamiyatning barcha sohalarida o'z o'rini mustahkamlab, nafaqat shaxsiy kelajagini, balki yurt taqdirini ham belgilashga qodir kuchga aylanmoqda.

Bu o'zgarishlar mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rini ham o'z aksini topmoqda. So'nggi ikki yil ichida O'zbekiston Gender tenglik va boshqaruvi indeksi (GEGI) bo'yicha natijalarini 51 pog'onaga yaxshilab, 103-o'rindan 52-o'ringa ko'tarildi va Markaziy Osiyoda yetakchi davlatga aylandi.

Bu yutuqlar xotin-qizlarning IT va STEM-loyihalardagi ishtiroki, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlari hamda gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasidir. Shuningdek, ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida maxsus ilova va ishonch telefonlari ham ishga tushirildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, GEGI reytingi 158 davlatni qamrab olib, gender tengligi sohasidagi yutuqlar va kamchiliklarni aniq baholash imkonini beradi. 2024-yilda O'zbekiston 72,8 ball to'plab, qo'shni davlatlar orasida eng yuqori natijaga erishdi.

Ushbu reytingda yaqin qo'shnilarimiz — Qozog'iston — 76-, Qirg'iziston — 99-, Tojikiston — 103-o'rinni egalladi.

Qolaversa, o'tgan yilning mart oyida O'zbekiston Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" reytingida 100 ballidan 82,5 ball to'plab, gender tengligini ta'minlash borasida eng katta yutuqlarga erishgan beshta davlat qatoriga kirdi.

Bu natijalar mamlakatimizda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta'minlayotgani, jamiyatda munosib o'rinni egallashi uchun yaratilayotgan imkoniyatlarining yuksak e'tirofi, desak aslo adashmagan bo'lamiz.

Qolaversa, dunyoda kechayotgan og'ir geosiyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy va ma'naviy inqirozlar fonida gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ham moddiy, ham ma'naviy qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy masalalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi katta jasorat va mas'uliyat talab etadi.

Yaqin o'tmishimizda ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki hisobot uchungina ta'minlangan davrlarni ham ko'rdik. Biroq bugungi O'zbekistonda ayollar nafaqat parlamentda, balki davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat, sud va huquqni muhofaza qilish organlari, iqtisodiy siyosat yuritish jarayonlarida ham faol ishtirok etmoqda.

Hozirda Oliy Majlis yuqori palatasida senatorlarimizning 26,4 foizi xotin-qizlardir. Qonunchilik palatasiga yangidan saylangan deputatlarimiz esa 38 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Bu ayollar endi qonunlarni ijro etuvchiga emas, balki ularni shakllantirishda ham faol ishtirok etayotgan yetakchi kuchga aylanayotganidan darak beradi.

Davlat boshqaruvida ayollar ishtiroki ortib, vazirliklar, banklar, ilmiy va ta'lim muassasalari, yirik sanoat korxonalarini ular rahbarligi ostida ishlamoqda. Yuksak davlat lavozimlaridagi xotin-qizlar nafaqat shaxsiy muvaffaqiyati, balki minglab ayollar hayotini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslari bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shaypti.

Biroq oldimizda hal etilishi kerak bo'lgan masalalar ham anchagina. Xususan, bilimsizlik va o'z huquqlarini yetarli darajada talab qila olmaslik opa-singillarimizni qiyin kelayotgan ko'plab muammolarga sabab bo'layotir. Afuski, jamiyatimizda oilaviy ajrimlar, kelishmovchiliklar tufayli uy-joysiz qolgan, hatto bolalari ta'minoti uchun moddiy da'vo qo'ya olmayotgan ayollarni ham uchratish mumkin. Xotin-qizlarimiz jamiyatda o'zining munosib o'rini topishi, eng avvalo, ota-onalar munosabati va oliy ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish bilan bog'liq.

Muhtaram Prezidentimiz o'tgan yili yurtimiz xotin-qizlarini 8-mart bayrami bilan qutlar ekan, "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz qo'shimcha imkoniyat topib, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, xotin-qizlarimizning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratmoqdamiz va bu ishlarimiz albatta davom etadi. Chunki ayollarning, xususan, qiz bolaning o'qib, oliy ma'lumotli bo'lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi", degan edi.

Haqiqatan, ta'lim — ayol uchun hayot yo'li, erkinlik kaliti, taraqqiyot poydevori. Bir paytlar maktabni bitirgan qizlarning ko'pincha o'qishini davom ettira olmagani bo'lsa, joriy o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushi 52,2 foizni tashkil qilmoqda. Vaholanki, bir necha yil avval bu ko'rsatkich atigi 20-30 foiz atrofida edi.



Shu o'rinda bir haqiqatni unutmash kerakki, xalqimiz azal-azaldan ayolni ona, tarbiyachi, millat tayanchi sifatida ulug'lab kelgan. Shu bois, ma'rifatparvar bobolarimiz "Onani o'qitsak, millatni o'qitgan bo'lamiz", deya xotin-qizlarni bilimli qilishga intilgan. Tarix guvoh: har qanday qalits davrlarda ham millatparvar ziyolilarimiz ayollar ta'limiga alohida e'tibor qaratgan. Bunga o'zbek qizlarining bir guruhi XX asr boshlarida vatanparvar ziyolilar homiyligida Germaniyaga o'qishga yuborilgani yorqin misol bo'la oladi. Shu bilan birga, To'maris, Saroy Mulk qo'shaypti.

Xotin-qizlar-ning rahbarlik lavozimlariga tayyorgarligi va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 2024-yilda "Rahbar ayollar maktabi" dasturi orqali 100 nafar xotin-qiz o'qitildi, 388 nafar talabaniing kontrakt to'lovlari davlat tomonidan qoplab berildi, 150 xotin-qizning farzandi uchun grant ajratildi.

xonim (Bibixonim), Gavharshodbegim, Gulbadanbegim, Mumtoz Mahalbegim, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin kabi yuzlab ma'rifatparvar ajdodlarimiz hayoti bugun ham biz uchun ibrat bo'lib kelmoqda.

Bugun yurtimizning hatto qishloq hududlarida ham qizlar uchun oliy ta'lim olish imkoniyati yaratildi. 7 yil muddatga 14 foizli ta'lim kreditlari joriy etilgani, magistraturada o'qishga kirgan ayollarning shartnoma to'lovlari davlat tomonidan qoplab berilayotgani, shuningdek, ehtiyojmand oilalar qizlari uchun maxsus grantlar ajratilayotgani minglab yoshlarning ezgu orzu-umidlarini ro'yobga chiqarmoqda.

Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi oliy ta'lim olish kabi dolzarb masalalardan biridir. Shu bois, so'nggi yillarda 205 mingdan ortiq ayol o'z biznesini yo'lga qo'ydi. Davlat tomonidan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida 3 yil muddatga 14 foizli imtiyozli kreditlar ajratildi, davlat grantlari, subsidiyalari va biznes dasturlari joriy etildi, hunarmandchilik va tadbirkorlik kurslari tashkil etildi.

Shuningdek, "Ayollar daftari" tizimi orqali minglab xotin-qizlar tadbirkorlikka yo'naltirildi. Ishbilan ayollar o'z hayotini yaxshilabgina qolmay, jamiyat taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, oila instituti va gender tenglik masalalarini davlat siyosati darajasiga ko'tarishga qaratilgan salmoqli islohotlar amalga oshirildi. Shu yo'nalishdagi muhim qadamlardan biri — Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasining tashkil etilishi bo'ldi.

Ushbu komissiya xotin-qizlar masalalari bilan shug'ullanuvchi parlament va hukumat huzuridagi takrorlanuvchi kengashlarni bir-lashtirib, yagona yondashuv asosida faoliyat yuritishga yo'naltirdi. Uning tarkibiga parlament a'zolari, hukumat vakillari, vazirlik va idoralar rahbarlari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda hududiy hokimlik vakillari kiritildi.

Komissiyaning asosiy vazifalaridan biri — mahallalarda xotin-qizlar faoliyatini samarali tashkil etish va mazkur yo'nalishda namunaviy tizim yaratish. Bu borada bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib, ayollarning jamiyatdagi faolligini qo'llab-quvvatlovchi tizimli dasturlar ishlab chiqildi.

Davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish maqsadida "Rahbar ayollar maktabi" dasturi joriy etildi. Shuningdek, BMning "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" to'g'risidagi rezolyutsiyasini amalga oshirish bo'yicha 2022-2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar qabul qilinib, huquqiy baza mustahkamlandi. Bu boradagi muhim qadamlardan biri — 2023-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qonun bo'ldi.

Ushbu hujjat jinsiy zo'ravonlik va oilaviy tazyiqlarga qarshi keskin choralarini nazarda tutib, qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etdi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga yengillik berish imkoniyati butunlay bekor qilindi.

Bu tashabbuslar xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi muhim qadam bo'lib, jamiyatda adolat va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Jamoatchilik va xalqaro tashkilotlar bu o'zgarishlarni ijobiy baholadi. Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlar, ayniqsa, xalqaro miqyosda e'tirof etilib, Pekin deklaratsiyasi va Xotin-qizlar huquqlarini kamsitilishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya kabi xalqaro majburiyatlarga muvofiq ekani ta'kidlandi. Bu o'zgarishlar xalqaro hamjamiyat tomonidan O'zbekistonda gender

tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish borasidagi tizimli islohotlar samarasi sifatida baholanmoqda.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rini mustahkamlash nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy vositalar orqali ham ta'minlanmoqda. 2024-2025-yillarda 580 ming nafar ayolni ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan. Bu maqsadda 3 trillion 128 milliard so'm imtiyozli kredit ajratildi, xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun "Loyihalar fabrikasi" elektron platformasi ishga tushirildi.

"Ayollar daftari" tizimi orqali 548,8 ming xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, "Hamroh" dasturi doirasida tadbirkor ayollarga moliyaviy ko'mak berish mexanizmi joriy etildi va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda grantlar jalb qilinmoqda.



Xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, gender tenglikni ta'minlash va oila institutini mustahkamlash mamlakat ijtimoiy rivojlanishining ajralmas qismiga aylandi. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qabul qilingan qonunlar va ishlab chiqilgan dasturlar ayollarning hayotdagi mavqei yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Hukumat tomonidan belgilangan ichkil siyosat natijasida O'zbekistonda xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy barqarorlik yanada mustahkamlanaypti. Bu sa'y-harakatlar nafaqat jamiyatda tenglikni ta'minlash, balki kelajak avlod uchun kuchli va barqaror asos yaratishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Ayollar daftari" tizimi va gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami islohotlar ayollar turmush farovonligini oshirishning muhim omillaridan biriga aylandi.

Mazkur yo'nalishda 2024-yili amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib, 2025-yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi. Endilikda nafaqat ijtimoiy himoya, balki ayollarning iqtisodiy faolligi, ta'lim va davlat boshqaruvidagi ishtiroki ham e'tibor markazida bo'ladi.

Darhaqiqat, 2020-yildan buyon amalga oshirilayotgan dunyoda muqobil yo'q "Ayollar daftari" tizimi davlat va jamiyat hamkorligida ehtiyojmand xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmi qadam oldi. 2020-2024-yillar davomida 3,5 million xotin-qizga moddiy, tibbiy, ijtimoiy va huquqiy yordam ko'rsatildi.

O'tgan yili 549 ming xotin-qiz ish bilan ta'minlandi; 36 ming ayol tadbirkorlikni

yo'lga qo'yish uchun 362 milliard so'm kredit oldi; 161 ming boquvchisini yo'qotgan ayolga moddiy yordam ko'rsatildi; 6 ming xotin-qizning uy-joy sharoitlari yaxshilandi; 211 ming ayol va ularning 49 ming nafar farzandi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Bu tizim jamoatchilik va xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy baholandi.

2025-yildan "Ayollar daftari" yangi bosqichga ko'tariladi. Endilikda ayollarning ehtiyojlarini aniqlashda "mahalla yetiligi" yetakchi rol o'ynaydi. Bu yil xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 580 ming xotin-qizni ish bilan ta'minlash, 134,4 ming ayolni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, 2,3 trillion so'm imtiyozli kreditlar ajratish, "Loyihalar fabrikasi" platformasi orqali 250 ta tadbirkorlik



yo'nalishida onlayn o'quv dasturlarini joriy etish rejalashtirilgan.

Shuningdek, kasb-hunarga o'qitishda davlat va xususiy sektor hamkorligi mustahkamlanmoqda. 2025-yilda 139,3 ming xotin-qiz kasb-hunarga o'qitish, 2,3 trillion so'm imtiyozli kreditlar ajratish, "Loyihalar fabrikasi" platformasi orqali 250 ta tadbirkorlik

Xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlariga tayyorgarligi va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 2024-yilda "Rahbar ayollar maktabi" dasturi orqali 100 nafar xotin-qiz o'qitildi, 388 nafar talabaniing kontrakt to'lovlari davlat tomonidan qoplab berildi, 150 xotin-qizning farzandi uchun grant ajratildi.

O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi ishtiroki yangi bosqichga chiqmoqda. Ehtiyojmand xotin-qizlar bu yil ham "Ayollar daftari" tizimi orqali manzilli yordam olishda davom etadi. Biroq bu tizimning asosiy maqsadi — ularni kasb-hunarga o'rgatib, moliyaviy mustaqillikka erishishini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Davlatimiz rahbari belgilagan maqsadlar doirasida 2025-yilda 1 milliarddan ortiq xotin-qiz uchun yangi imkoniyatlar yaratish rejalashtirilgan.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvi, tadbirkorlik va ta'lim sohalaridagi ishtiroki kuchaygan sari, O'zbekistonning barqaror rivojlanish yo'lidagi qadamlari ham yanada mustahkamlanib boradi. Bu nafaqat ayollar, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Demak, bu yilgi 8-mart bayramiga aziz xotin-qizlarimiz uchun nafaqat gullar, balki yangi imkoniyat va kelajakka umid ham taqdim etilyapti.

Bu yo'nalishda olib borilayotgan ichkil islohotlar, shubhasiz, O'zbekistonning yorug' kelajagini yaratishga xizmat qiladi.

Ubayda FAYZIYEVA:

“NUQSONLI BOLALAR HAM GAPIRA OLADI”

Matonat

Eshitish va gapirishda nuqsonli bolalar bilan muloqot qilish sog'lom odamlar uchun qiyin. Ularga ta'lim berish, o'qish-yozishni o'rgatib, nutqini to'g'rilash, hatto so'zlashga o'rgatish orqali ovozlari dunyosiga olib kirish esa ikki karra mashaqqatli. 57 yildan ortiq faoliyati davomida nuqsonli bolalarning o'zbek tilida ta'lim olishi uchun tinmay izlanayotgan, maxsus ta'lim adabiyotlari yaratgan, ilk “Alifbe” kitobini chop ettirgan olim, surdopedagog Ubayda Fayziyeva hozirgacha soha mutaxassislarini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatmoqda.



Ta'limning hamma uchun teng shakli

Salkam 80 yoshni qoralagan yurtdoshimiz defektologiya yo'nalishidagi ilmiy-amaliy ishlari bilan xalqaro maydonda ham tanilgan. Uning uzoq yillik ilmiy izlanishlari natijasida eshitish va gapirishda nuqsonli bolalar bugun o'z ona tilida sifatli ta'lim olish, nutqini chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, hamma qatori gapirib ketgan. Ayol shunday vaqtlarda o'sha bolalarning onalari ko'ziga boqadi, ulardan ikki karra ko'p sevinadi, kasbidan rozi bo'ladi, baxtni his qiladi. Axir shu yo'nalishda tahsil olib boshlagan kezlari 19 yoshda edi. O'shandan beri izlanishdan tinmadi, tanlagan yo'lidan qaytmadi. O'qidi, ishladi.

— Toshkent viloyatining tog'li Burchmulla qishlog'ida tug'ilib, voyaga yetganman, — deydi olim. — 1967-yilda Toshkent shahri xotin-qizlar pedagogika bilim yurtini tamomladim. Taqdir taqozosi bilan kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatiga ishga kirdim. Shu yerda 22 yil faoliyat yuritdim. Meni qiynagan asosiy masala shu kabir maktablarda bolalarning faqat rus tilida o'qitilishi edi. Qanday bo'lmasin, ularga o'z ona tilida ta'lim berish, urf-odatlarimizni o'rgatishga ahd qildim. Faoliyatim shu yo'nalishda davom etishini tushunib yetganimdan keyin Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi universitet) ning oligofrenopedagogika hamda surdopedagogika yo'nalishlarida tahsil oldim. Lekin o'sha vaqtlarda yurtimizda kar-soqov bolalarni o'qitish uchun o'zbek tili darsliklari ham, bu borada tajriba ham yo'q edi. Rus tilidagi darsliklarning tagiga o'zbekcha yozib, bolalarni o'qitgan vaqtlarimiz bo'lgan. Shu bois, nuqsonli bolalar uchun o'zbek tilida darslik yaratish asosiy maqsadimga aylandi. Buning uchun, avvalo, shu yo'nalishda o'qitish metodikasini mukammal o'rganish, o'zbek tili qoidalari yaxshi bilish, o'rgatish mexanizmini to'g'ri belgilash kerak edi. Menga “Olim bo'lmasangiz, ilmiy unvoningiz bo'lmasa, buni uddalay olmaymiz. Bu masalaga aralashmang”, deganlar ham bo'lgan. Ammo maqsadim qat'iy edi, atrofimga o'qituvchilar, mualliflar guruhini to'plab, 1984-yilda ilk darsliklarni tayyorladik. Hatto maktab-internatlar uchun o'zbek tilida ilk “Alifbe”ni ishlab chiqdim. Moskvadagi ilmiy kengashga olib borib, tasdiqlatib ham kelganman. Ammo turli sabablarga ko'ra, chop etilmadi. Mustaqillikdan keyin — 1992-yilda birdan 5 ta darsligim va “Alifbe” kitobi nashr qilindi. O'zim jalb qilgan o'qituvchilarning ham bir necha darsligi chiqarildi.

Men o'qigan vaqtlarda oliy o'quv yurtlaridagi surdopedagogika fakultetlarida ham darslar rus tilida o'qitilardi. Sohadagi bilimimni oshirish maqsadida go'limdagi go'dagim bilan Moskvaga borib, sirtidan ta'lim oldim. Bu orada tegishli idoralarga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining defektologiya fakulteti surdopedagogika yo'nalishida o'zbek tili guruhlarini ochilishini so'rab murojaat qildim. O'zbek xotin-qizlari ham o'z ona tilida shu sohani o'rgansin, degan masalani qo'ydim. 1979-yilda 1-kursni tamomlab, yurtimizga qaytgach, surdopedagogika yo'nalishi bo'yicha o'zbek guruhi ochilib, qabul e'lon qilganini ko'rdim. Keyin o'qishimni shu guruhda davom ettirdim. O'qishni tamomlagach, avval katta o'qituvchi, so'ng kafedra mudiri lavozimida ishladi. Shundan so'ng universitetda o'zbek tilida fakultetlar ochildi. Hozir ko'rish, eshitish, nutqida nuqsonli bolalarni o'qitish bo'yicha mutaxassislar tayyorlanayapti. Ular ishimizni davom ettiradi.

Ubayda opa 30 yoshidan keyingi faoliyatini nuqsonli bolalarni o'qitish bilan birga, shu sohada kadrlar tayyorlashga qaratdi. Surdopedagogika yo'nalishida talabalar uchun ilk bor o'zbek tilidagi o'quv reja va dasturlar tayyorlab, davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqdi. Ko'plab shogirdlarining ilmiy ishlariga rahbarlik qilyapti. O'zi ham nomzodlik ishini yoqlab, 1996-yilda dotsent ilmiy unvoniga erishgan. Olimaning bugunga qadar kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari uchun 14 nomdagi darsligi, talabalar, maxsus ta'lim muassasalari, inklyuziv ta'lim bo'yicha o'qituvchilar hamda ota-onalar uchun metodik va o'quv qo'llanmalari chop etilgan.

Mazkur jarayonda o'zim ham bevosita ishtirok etib, bir vaqtlardagi qiyinchiliklar yodimga tushsa, bugungi sharoitlardan quvonaman. Inklyuziv ta'lim haqida shunchaki gapirilmayapti, balki aniq ishlar qilinayapti. Umumta'lim maktablarini bunga tayyorlash, maxsus maktablardagi kabi sharoitlarni yaratish uchun katta tayyorgarlik ishlari olib borildi. O'qituvchilar uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratildi. Hozir 700 ga yaqin alohida ehtiyojli bola inklyuziv tarzda ta'lim olayotgan bo'lsa, 2030-yilgacha maxsus maktab-internatlarda o'qiyotgan bolalar soni juda qisqaradi. Og'ir shakldagi, inklyuziv ta'limga tayyorlashga imkoniyati yo'q bolalargina maxsus ta'lim muassasalarida o'qiydi. Sifatli natijaga erishish uchun kadrlar tayyorlanayapti. Oliy ta'limda ham oliy inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yildi.

Ayolning kuchi nimada?

Nuqsonli bolalar bilan ishlash oson emas. Pedagog bunday bolalarni o'qitish, savodini chiqarish uchun sog'lom bolalarga nisbatan ko'proq vaqt, mehnat sarflaydi. Ubayda Fayziyeva ana shu mehnatning natijasidan zavq oladi. Olim o'zi tashkil qilgan inklyuziv ta'lim markazida eshitishi, nutqida muammosi bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish bilan shug'ullanadi. Har o'quv yilida markazdagi 5-6 bola umumta'lim maktabiga inklyuziv ta'lim olishga chiqib ketadi. Ular hamma qatori gapiradi, o'qib-yozadi.

— Ko'p ayollar farzandini olib kelib, “Bolam eshitmaydi ham, gapirmaydi ham, nima qilsak bo'ladi?” degan tashvishli savol bilan murojaat qiladi, — deydi Ubayda Fayziyeva. — Hozir bu borada imkoniyat juda keng, yurtimizda kar-soqov bolalarni eshitish va gapirishga o'rgatish amaliyoti kirib kelib, rivojlandi. Gap jarrohlik amaliyoti orqali implant qo'yish haqida ketayapti. Ana shu implant bolalarga eshitish imkoniyatini beryapti. Eshitgan bola gapira oladi. Faqat buning uchun surdopedagog yordami kerak. Markazimizda ayni shu jarayon amalga oshiriladi. Bolaga implant qo'yilgan kun qaytdan tug'ilgandek bo'ladi. Chunki ovozi dunyoga kirib boradi. Bu quvonch bolalarga davlatimiz tomonidan berilib, jarrohlik amaliyoti bepul o'tkazilayotir. Chunki hamma davlatda ham bunday sharoit yaratib berilmaydi. Har yili kamida 200-300 bolaga kichik



etgan holda, to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, nuqsonli bolalarga sifatli umumiy o'rta ta'lim berishdan iborat.

— Hozir yurtimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali kar-soqov bolalarni 2-3-sinfdan sog'lom bolalar qatoriga qo'shish bo'yicha katta ishlar qilinayapti, — deydi Ubayda Fayziyeva. — 2020-2021-yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'lim joriy etilgach, avval davlatimiz rahbarining qarori bilan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi e'lon qilindi. Shunday ta'limni rivojlantiruvchi maxsus laboratoriya ochildi. Yurtimizda maxsus ta'lim xorijiy davlatlarimizdan qolishmaydigan darajada rivojlantirildi. Ko'p davlatlarda xizmat safarida bo'lib, amaliyotini o'rganганиmizda, ayniqsa, bizdagi imkoniyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, ayrim davlatlarda bola to'g'ridan to'g'ri inklyuziv ta'limga jalb etilishiga guvoh bo'ldik. Uddalab ketsa, o'qiydi, bo'lmasa, yo'q. Bizda esa nuqsonli bolalar avval maxsus maktablarda inklyuziv ta'limga tayyorlanib, keyin umumta'lim maktabiga o'tkaziladi. Hozir yurtimizdagi maktab-internatlarga sarflanayotgan mablag' bilan ko'plab umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash mumkin. Maktab-internatlarning barchasi eshitish, ovozi kuchaytirib berish moslamalari bilan ta'minlangan. Ilgari bolalar faqat dars vaqtida eshita olgan bo'lsa, endi kunbo'yi eshita oladi. Bunday sharoitda ular gapirishga tezroq o'rganadi. Demochimanki, e'tibor, sharoit, sarflanayotgan mablag' juda katta. Kar-soqov bolalarning tezroq sog'lom bolalar qatoriga qo'shilib, moslashtirish uchun barcha sharoit yaratilgan.

yoshidan boshlab bepul implant qo'yilyapti. Ularning 70-80 foizi eshitib, gapirib ketishi, sog'lom bolalar qatoriga qo'shilib ham katta natija.

Ubayda Fayziyeva bilan suhbat uzoq davom etdi. Bir ayol o'z kasbini burchlik seviz, oilimalik mashaqqatini quvonch bilan bosib o'tishi borgan sari hayratini oshiradi. Bunday insonlar mamlakatimizda qadrlanadi, bunday ayollar doim e'zozda, barchaga namuna. Olimaning ko'ksiga taqilgan orden va medallar buning isboti.

— Bolaligidan oldiga maqsad qo'yib yashagan ayol kuchli bo'ladi, — deydi Ubayda Fayziyeva. — Chunki o'sha maqsadga erishish uchun mashaqqatli yo'larni bosib o'tishi kerak. Hatto biror kasbi bo'lmasa ham farzandlarni dunyoga keltirib, yaxshi inson qilib tarbiyalash ham ayolni kuchli qiladi. Men o'zimni ana shularga erishgan baxtli ayol deb bilaman. Nogiron bolalarni eshitadigan dunyoga olib kirib, nutqini chiqarib, onalari quvonchini ko'rsam, ikki karra baxtni tuyaman. Uni so'z bilan ifodalab berolmayman.

Jamiyatda xotin-qizlarning o'z o'rini topishida oilasining qo'llab-quvvatlovi juda muhim. Turmush o'trog'im kasbimni hurmat qilib, ishlashim uchun barcha sharoitni yaratib bergan. Uning o'rinda boshqa odam bo'lganida, ehtimol, oilada ham, ishda ham bugungidek natijaga erisholmagan bo'lardim. Farzandlarim ham doim meni tushunib, yonimda turgan. Barchasi hayotda o'z yo'lini topgan. Oila davrasida o'tirganimizda “Meni hamisha qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizlardan minnatdorman!” deb ayot turaman...

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Yuksalish pallası

MUNOSIBLIK

EL-YURTIMIZ RIVOJIGA KAMARBASTALIK DEMAK

Ummatoy YO'LDOSHEVA,
“Yangi O'zbekiston” universiteti magistranti,
“Anora” loyihasi asoschisi



“Anora” loyihasiga asos solishdan oldin Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan birga qizlarni axborot texnologiyalari yo'nalishida o'qitish uchun ko'p loyihalarni ilgari surdik. O'tgan yili yozda mobil dasturlashni o'rgatish bo'yicha treninglar o'tkazdik. Shu davrda juda ko'p qiyinchilikka duch keldim. Tinglovchilarning birida kompyuter yo'q, ikkinchisida boshqa yetishmovchilik uchraydi. Ammo bu holat xotin-qizlarning dasturlashni o'rganishiga xalal bermadi. Ularga bugun muhim bo'lgan sun'iy intellekt va neyrosetlar orqali daromad topish yo'lini o'rgatishga harakat qildim. Hozir juda ko'p neyroset chiqib ketdi. O'zimiz matn berish orqali rasm yaratib, uni sotish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu orqali yaxshigina daromad topish mumkin.

Loyiha orqali ayol-qizlarga axborot texnologiyalari yo'nalishida dastlabki bilim berish, kelajakda qisqa muddatda qo'shimcha daromadga ega bo'lishiga ko'maklashish maqsad qilingan. Loyiha juda oddiy: opa-singillarimiz qisqa muddatda va oson bajarishi, ikki oy muddatda dastlabki bilimlarni o'rganishi mumkin.

AISEC tashkilotining 110 davlatda ofisi bor. Ayni paytda O'zbekistonda ochilgan ofisda men vakil sifatida ishlayapman. Bu loyihaning Global Teaching, Global Internships, Global Student degan dasturlari mavjud. Loyihalar universitet talabalarning xorijdagi yetakchi OTMlarida malaka oshirishiga yordam berish, startaplarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Hozir ayni shu yo'nalishlarda hamkorlik qilyapmiz. Startap loyihalarni ishga tushirish bo'yicha ishlayapmiz. Turli universitetlardagi startap loyihalarni yig'ib, ularga munosib investitsiya, venchur fondlar topib beryapmiz. Bu borada Fransiya, Italiya, Xitoy, Turkiya, Hindiston va boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilyapmiz.

Korliya nomidagi davlat mukofotiga munosib ko'rilishim kutilmagan holat bo'ldi. Bu chindan

hayajonli va shukuhli voqea. Onam kichikligimdanog bu mukofotni qo'lga kiritishimni orzu qilgan. Bugun onamning orzusi ro'yobga chiqdi. Mukofot olganimni bilgach, menga: “Rahmat, yuzimni yorug' qilding, qizim. Barcha qiyinchiliklarim ortda qoldi. Senga ishonardim”, dedi. Shu lahzalarda mendan baxtiyor inson yo'q edi.

Farzand uchun ota-ona orzusini amalga oshirish, ular ko'zidagi quvonch va baxtni ko'rish o'zgacha tuyg'u bag'ishlarkan. To'g'ri, bu muvaffaqiyatga birdan erishmadim. 2019-yilda ham Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga nomzod bo'lganman. Lekin oxirgi bosqichdan o'ta olmaganim. Hamma ishing xayrli yechimi, vaqti-soati bo'larkan. O'sha paytda men bu mukofotga loyiq emasdim. Hozir magistratura bosqichida tahsil olayman. Bugun erishgan natijalarim bilan haqli ravishda faxrlansam bo'ladi. Mukofot menga ana shunday g'urur berdi. Eng quvonarlisi, onam ham taqdirlash marosimiga taklif etilgan. Men farzandlik burchimni qisman bo'lsa-da ado etayotganimdan xursandman. Ota-onamning quvonch ko'z yoshlarini ko'rib, shu mukofotga munosib, vatanimiz rivoji yo'lida kamarbasta bo'lishga va'da berdim.

BUGUNGI QISHLOQ AYOLI, KECHAGI QISHLOQ AYOLI EMAS

Tojibiyka MATKARIMOVA,
fermer, “Yashil tabiat bio orayi”
biolaboratoriyasi rahbari

Ayol har qanday sinov va qiyinchiliklarni yengib o'tishga qodir matonat timsoli. Ayniqsa, qishloq ayoli! U barcha zamon va makonlarda nozik qalbi va jussasi bilan sinovlardan mardona o'tib kelgan. Uzoqqa bormaylik, yaqin-yaqingacha majburiy mehnatdan asosan, qishloq ayollari aziyat chekdi. Paxta sabab bolasini dala boshida katta qilganlar ham, hamshira yoki o'qituvchi degan maqomi bilan dalaga quvilganlar ham shu — qishloq ayoli edi.



Nigoh

Keyingi yillardagi islohotlar sabab majburiy mehnatga to'la barham berildi. Bugun qishloq hamshirasi o'z ishi bilan, o'qituvchilarning ta'lim berish bilan chora. Ularning huquqiga kimdir daxl etsa, darrov band ko'riladi. Haqlari tiklanadi. Shuning o'ziyoq yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanib, ayollar e'zozda ekanini ko'rsatadi.

O'zim yashaydigan Xo'jayli — Qoraqalpog'istonning olis hududlaridan biri. Shu yerda uzoq yillardan beri fermer xo'jaligi rahbari sifatida faoliyat yuritib kelyapman. Bundan tashqari, o'simliklardagi turli kasalliklarga qarshi kurashadigan xususiy laboratoriyamiz bor.

Fermer xo'jaligimiz ko'p tarmoqli. Parrandachilik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanamiz. Bugun qishloq ayoliga yaratib berilyotgan imkoniyatlar deganda, mana shu ishlarim ko'z oldimga keladi. Men ham oddiy qishloq qiziman. O'zgina mehnatim, intilishim sabab bugun katta natijalarga erishyapman. Masalan, bir necha yil avval berilgan imtiyozlar sabab fermer xo'jaligimizga yangi traktor olish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu ishimizni ancha yengillashtirdi.

O'simliklar karantini bo'yicha qirg' yillik tajribam bor. O'simliklar dunyosini kuzatib, ko'rib, ularni ham odamlarga o'xshatgim keladi. Tabiatda zarar ko'paysa, ob-havo noqulay bo'lsa, o'simliklarda kasallik avj oladi. O'sish-rivojlanish bo'lmaydi. Buning uchun, avvalo, ularni turli ob-havoga chidamli, immunitetini kuchli qilish choralari

ko'riladi. Jamiyatda ham shunday ekan. Qiyinchilik ko'p bo'lsa, avvalo, ayollar sinovga duch keladi. Er yigitlarga dalda bo'lish, oilasi tinchligini ta'minlash, ro'zg'oming bor-yo'g'ini sezdimay yashash — barcha-barchasi ayol zimmasiga yuk bo'ladi.

Keyingi yillardagi islohotlar sabab qishloq ayolining turmushi tubdan o'zgardi. Mamlakat rivoji bevosita xotin-qizlar faolligiga bog'liq ekan e'tirof etilib, shunga munosib tarzda islohotlar qilinmoqda. Prezidentimiz “Bitta qizni o'qitsak, butun oilani o'qitgan bo'lamiz”, deya bir necha bor ta'kidladi. Onalarning bilimdon bo'lishi uchun, avvalo, xotin-qizlar ta'limga qaratilayotgan e'tiborni eshlashimiz kerak. Masalan, imtiyozli tarzda o'qishga qabul qilish yo'lga qo'yildi. “Ayollar daftari” sabab ijtimoiy ko'makka muhtoj onalar, opa-singillarimiz qo'llab-quvvatlanmoqda. Yana bir misol, ikki yil avval mahallamizda ikki qavatli zamonaviy bog'cha qurildi. Bugun mahallamizning ayollari bemalol bolalarini bog'chada qoldirib, o'z yumushlari bilan to'la shug'ullana olyapti. Yangi O'zbekistonda bog'chalarning keng joriy etilishi bugun olis qishloqlardagi aksariyat ayollarning orzulari ushlishiga xizmat qilmoqda. Ular ro'zg'or, bolaga qarashday yumushlardan ortib, joylardagi markazlarda bepul ta'lim, kasb-hunar o'rganyapti.

Bularning barchasi yurtimizda xotin-qizlar e'zozda ekanini ko'rsatadi. Bugun baxtli bo'lish uchun hamma imkoniyat bor, yagona sharti shuki, shunga munosib tarzda mehnat qilish kerak!

USHBU MAQLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



VATAN SHA'NI UCHUN

MAYDONGA TUSHISH — ENG KATTA G'ALABA

Ayol mamlakat taraqqiyotiga, jamiyat rivojiga, millat kelajagiga munosib hissa qo'shuvchi buyuk tarbiyachidir. Uning mehr-muhabbati kelajagimiz egalari unib-o'sishi, ularning jonajon vatanimiz ravnaqi, tinchligi va osoyishtaligi, xalqimiz farovonligi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan insonlar sifatida voyaga yetishida muhim o'rin tutadi.

Bugun xotin-qizlar jamiyatning har jabhasida faol. Jumladan, sportda ham. Uzoqqa bormaylik, 10-15 yil ilgari shahar va tuman markazlarida qizlarning sport bilan shug'ullanishi deyarli kuzatilmadi. Bugun-chi? Yurtimizning chekka hududlarida ham ularning safi ancha keng. Ayniqsa, Tokio va Parij Olimpiya hamda Paralimpiya o'yinlari chempionlariga havas qilib, ularga o'xshash uchun ham sport bilan shug'ullanishga kirishganlar soni ortdi. Yuksak natijalar yoshlarimiz, ota-onalarning sportga munosabatini o'zgartirgan bor gap. Ularning qalbidagi o'zgacha shijoat paydo bo'ldi, qabllarda vatanparvarlik ruhi kuchaydi.

Joriy yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videosektor yig'ilishida Prezidentimiz, Milliy Olimpiya

qo'mitasi raisi Shavkat Mirziyoyev har bir inson, har bir ota-onaning orzusi va niyati jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash ekanini, bunga esa jismoniy tarbiya va sportsiz erishib bo'lmastligini ta'kidladi.

Sport shunchaki o'yin va musobaqa emas, millat genofondi, mamlakat qudrati va obro'-e'tiborini butun dunyoga tarannum etadigan ta'sirchan vositadir. Bundan kelib chiqib aytilish mumkin, kelajak avlod tarbiyachilari — xotin-qizlarning sport bilan shug'ullanishi ikki karra muhim. Mudom sa'y-harakat, intilish, qaralayotgan e'tibor va g'amxo'rlik, bildirilayotgan ishonch tufayli bugun xalqaro maydonlarda mamlakatimiz bayrog'i mag'rur hilpiramoqda. Sportchi xotin-qizlar yosh avlodga o'rnatqan va namuna bo'layotir.

SPORT TUSHKUNLIKNI YENGISHIMGA YORDAM BERGAN

Xurish, ko'rish, eshitish, ushlab baxti... Uning qadriga har doim ham yetavermaymiz. Sog'lom odam ishg'a, o'qishga, marosimlarga shoshib yuradi-yu, aslida, bu behiyo baxt ekanini o'z vaqtida anglab etmaydi. Yurolmagan inson ucha olmagan qush misolidir. To'shakka mixlanib qolgan odamning dardini hech kim o'zichalik his qilmaydi. Umidsizlik, tushkunlik hayotning faqat qora tomonlariga kishini oshno qilib qo'yadi. Sevimli mashg'ulot bilan band bo'lish tushkunlikni yengib o'tish sari tashlangan eng to'g'ri qadamdir.

Umurtqadagi nuqson sabab yura olmay qolganimda hayot o'ta rangsiz ko'rinardi. Maktabga o'zi yurib borib kelayotgan o'rtoqlarimga havas qilardim. Biroq shu holatda qolib ketmasligimga bo'lgan ichki bir ishonch, umid bor edi qalbidam. Bu ikki kuch sport sabab yana yuzaga chiqq boshladi.

Iroda insonni hayot sinovlarida toblaydi, sabr bilan jamiyatda o'z o'rnini topishga undaydi. Matonat esa ezgulik ila maqsad sari dadil intilishga, bu yo'ldagi barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengishga beqiyos kuch bag'ishlaydi.

Ayniqsa, 2016-yili Rio-de-Janeyroda g'olib bo'lgan sportchilarga sovg'a qilingan avtomobillarda bayrog'imiz aksi tushirilgan stikerini ko'rib, to'qinlanib ketganman. Bayrog'imizni o'zim bilan olib yurish, sportda g'alabaga erishish, faqat oldinga intilish asosiy maqsadim bo'lib qoldi. 2020-yili Tokio Olimpiadasida oltin medalga erisha olmasam-da, umidlarim so'nmadi.

Xayriyatki, o'tgan yili Parij Olimpiadasidan yorug' yuz bilan qaytib, Prezidentimiz bilan muvofiq qilib baxtiga muvassar bo'ldim. Ana shunday chinakam g'olib ekanimni, rostdan ham oltin medal olganimni his qildim. Davlatimiz rahbari "Bular haqida kitob yozinglar, kino olinglar" deganida, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi" nishonini ko'ksimga taqqanida esa shunday yurt farzandi ekanimga ming shukrlar aytdim. Zero, hech qaysi davlatda imkoniyati cheklanganlar, ayniqsa, xotin-qizlarga bu darajada ehtirof ko'rsatilmasa kerak.

Ayollari ulug'langan yurtda oilalar to'kis, hayot farovon, farzandlar baxtli bo'lishiga shubha yo'q. Shu mara nam, mamlakatimizdagi ming-minglab ayollar qatori eng baxtlilardan biriman. Bu baxt, bunday ehtirofga munosiblik esa vatanga bo'lgan qaynoq mehr bilan ifodalani. Biz, sportchilar buni jahon arenalarida ko'rsatishga intilamiz.

Shu o'rinda aytishni istardimki, imkoniyati cheklangan sportchilarga e'tibor kundan kunga ortib boryapti. Murabbiylarimizdan avval bunday imkoniyatlar bo'lmagani, rag'bat ham



Nurxon QURBONOVA, "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni sohibi

haminqadarligi haqida eshitganimizda, eng yaxshi davrnang baxtiyor yoshlari ekanimizdan xursand bo'lamiz.

Prezidentimiz shu yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazdi. Yig'ilishni diqqat bilan kuzatib bordim. Zero, paraspot turlarini rivojlantirish borasida yana yangi vazifalar belgilandi.

Masalan, endi chempionatlarda, albatta, paraspot musobaqasi ham o'tkazilishi, yig'ilarning birgalikda tashkil qilinishi nogironligi bor barcha sportchilarni ruhlanitirib yuborgan aniq. Yurtimizdagi 39 ta sport maktabi paraspot turlariga ixtisoslashishi esa ko'plab paraspotchilarga munosib ish o'rinlari degani. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan qizlarning imkoniyatiga qarab, boshqa sog'lom sport guruhlarida ham shug'ullanishiga sharoit yaratilishidan behiyo quvondim.

O'zbekiston 2028-yilda Los-Anjelesda bo'ladigan Olimpiya o'yinlarida kuchli o'ntalikka kirishni maqsad qilgan. "Yurt sharafini sport bilan ulug'layman", degan har bir yoshning oldida o'ta mas'uliyatli vazifa turibdi. Oldimdagi qat'iy maqsad bor: tinimsiz mehnat orqali bu ishonchni, mas'uliyatni oqlash. Buning uchun hamma imkoniyatimiz yetarli. Shunday ekan, jahon rekordlari O'zbekiston tomonidan yangilanishiga, medallar shodasi salmoqli bo'lishiga, albatta, erisha olamiz. Prezidentimizga bergan va'damiz ustidan chiqib, xalqimizni uch yildan so'ng yana olamshumul g'alabalar shukhi bilan xursand qilish barchamizga nasib etsin!

BIZ ODDIY TARBIYACHI EMAS, SALOHIYATLI GENOFONDMIZ

Dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, ongu tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini belgilovchi, ta'lim-tarbiyasini takomillashtiruvchi xilqat ayoldir. Xotin-qizlarga munosabat, hurmat-ehtiromini davlatning ularga munosabatida belgilash mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq yuksak madaniyati va olijanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmat qozonadi.

Chindan, biz, ayol-qizlar faqatgina kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan bolalarni dunyoga keltiruvchi va ularning oddiy tarbiyachilari emas, balki davlat va jamiyat boshqaruvida boy bilim va malakasini, bor kuchini safarbar etishga qodir ulkan salohiyatga ega genofondimiz.

Gender tenglikni rag'batlantirish borasidagi oqilona siyosat jamiyatning barcha jabhalarida ijtimoiy va siyosiy faolligimizni nafaqat jonlantirdi, balki o'zgarishlar jarayonlariga bevosita ishtirokimizni ta'minlab, daxldorlik tuyg'ularimizni jo'shqinlantirib yubordi.

Xoh Olimpiyada bo'lsin, xoh ta'lim sohasida, ayollar tomonidan erishilgan g'alabalar, natijalar ilg'or o'zgarishlar uchun katalizator bo'lib, butun dunyoga O'zbekistonning teng imkoniyatlar va hadsiz salohiyatlar mamlakati ekanini namoyish etadi va o'sha ayollar endi butun bir avlodni ortidan ergashira oladi. Men shunday ayol, shunday inson bo'lishni istayman.

Ayni damda o'zining serqirra, zamonaviy o'zbek ayoli ekanimni juda yaxshi anglayman: mehribon, tirishqoq qiz, hurmatga munosib kelin, shu bilan birga, mamlakatimizni jahon arenasida muvaffaqiyatli namoyon etayotgan

Olimpiada chempioni — men bularning hammasidan. Ozmi-ko'pmi erishgan natijam, uddasidan chiqq olgan vazifam O'zbekistondagi barcha ayollar uchun an'anaviy oilaviy qadriyatlarini saqlagan holda istalgan sohada cho'qqiga chiqishi mumkinligiga o'ziga xos chorlov bo'la olishiga ishonaman.

Jahon va Olimpiada darajasidagi sportchilar insonning jismoniy imkoniyatlari chegaralarini buzib, yuqori imkoniyat darajalarini namoyish etadi. Bunday natijalar ortida esa katta mashaqqatlar, tanaga va asab tizimiga nisbatan uzoq muddatli ixtiyoriy bosimlar, ya'ni stresslar yotadi. Misol uchun, suzuvchilar kuniga 7-8 soatlab mashg'ulotda o'tkazadi, shaxmatchilar 10 soatlab qimिर etmay shaxmat taxtasi yonida kunni kech qiladi, o'quv-yig'in vaqtlari musobaqalarga ulanib ketgan vaqtida

Diyora KELDIYOROVA, "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni sohibi

sportchilar 6 oydan yillargacha normal hayot tarzini his etmay, oila, shaxsiy munosabatlardan yiroq bo'lib, sport qobig'ida yashaydi. O'zimga kelsak, Tokio Olimpiadasidan keyin uch yil me'yorida uxlamadim, desam ham bo'ladi. Bunday paytlar odamga nima kuch beradi deb o'ylaysiz? Albatta, ishonch. Faqat o'zining emas, o'zgalarning, ya'ni yaqinlarning ishonchi. Yurt ishonchi, millat ishonchi!

Bugun ayollar sportda natija qayd etyapti, fan-texnologiyada inqilobiy g'oyalarni ilgari suryapti, rahbarlik lavozimlarida mas'uliyat bilan mehnat qilyapti, ishonish qiyindir,



MENING YO'LIM HAM, MAQSADIM HAM — G'OLIBLIK

Bolaligidan sportga mehr qo'yanman. Harakat qilish, maqsad sari intilish, o'zinni sinab ko'rish doim yo'qardi. Lekin sport shunchaki mashg'ulot emasligini, u hayot tarziga aylanishi mumkinligini keyinchalik tushundim. Bugun esa u men uchun nafaqat kasb, balki hayotimning mazmuni hamdir. 15 yoshimgacha katta tennis bilan shug'ullanganman. Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining taekvondo bo'limi murabbiyi Pahlavan Sobirov shu sport turi bilan shug'ullanib ko'rishimni tavsiya qildi va bugun

taekvondodaman. Sportning bu turida omadim chopganidan hamisha quvonaman. Tinimsiz mehnat, yaqinlarning qo'llovi hamda davlatimiz yaratib berayotgan imkoniyatlar natijasida o'laroq, 2024-yilgi Olimpiya o'yinlarida kumush medal sohibasi bo'ldim. O'zbek sporti tarixida shu vaqtga qadar ayol sportchi taekvondodan to'rt yillikning nufuzli sport forumida shohsupadan o'rin olmagan va bunday natija menga tegishli bo'lganidan, yangi sahifa ochganimdan bag'oyat xursandman.

Bugungi kunda mamlakatimizda sportga e'tibor yuksak darajaga ko'tarildi. Xotin-qizlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, ularga bildirilayotgan ishonch sportga mehrimizni



Svetlana OSIPOVA, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi

yanada oshirdi. Endi sport faqat erkaklar uchun emas, balki xotin-qizlar uchun ham katta imkoniyat ekanini hammamiz ko'rib turibmiz.

Ilgari qizlarning sport bilan shug'ullanishi unchalik odatiy hol hisoblanmagan bo'lsa, bugun biz xalqaro musobaqalarda qatnashib, chempion bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini baland ko'taryapmiz.

Davlatimiz tomonidan sportga jiddiy e'tibor qaratilishi sportchilar uchun juda muhim. Sababi zamonaviy sport inshootlarisiz, malakali murabbiylarisiz va xalqaro musobaqalarda ishtirok etish imkoniyatisiz yuksak natijalarga erishish mushkul. Quvonarlisi, bizga bu borada



chilangarlikdan to cho'ponlik sohasigacha ayollar bor. Bu boshqalarni bilimadim, meni g'ururlantiradi. Boisi, ayollarning jamiyatdagi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalaridagi mavqei u kamol topishi intensivligi darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlarning mavqei aks ettiradigan ma'lumotlar inson salohiyatini rivojlantirishda mamlakat erishgan real yutuqlar, shaxsni uyg'un kamol topitirish va salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida jamiyatning ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar berilgan ijtimoiy teng adolat sari borishi darajasining xolis mezonidir.

Menda doim, hamma joyda aytishdan charchamaydigan katta tilak bor: hozir hech narsadan qo'rqqmasligimiz kerak. Hammamiz, jur'atli, o'mi kelganda, tavakkalchi bo'lishimiz shart. Ortiqcha ekanini bilib turib, behuda ishlarga qo'l urmasak, shu jamiyatning, shu davlatning eng kichik bo'lsada qismi, parchasi ekanimizni anglasak, ajdodlarimizning qonimizda oqayotgan ruhiy quvvatini boshqara olsak, fuqaro sifatida ham, inson sifatida ham o'z burchimizni ado etgan bo'lamiz. Burch — katta mas'uliyat, vazifa. Bu odamni tinmay harakatga undaydi, hayotini soatma-soat yaxshilashga ilhomlantiradi. Buni juda yaxshi his qilaman, hamma his qilishini istashim esa maqsadim.

HECH QACHON OLG'A INTILISHDAN QO'RQMANG!

Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etib, uning sovrindori bo'lish eng katta orzularimdan biri edi. Ushbu natijaga erishishimda, avvalo, o'z ustimda betinim ishlashim, murabbiylarimning beminnat saboqlari hamda oila a'zolarimning doimiy qo'llab-quvvatlashi muhim rol o'ynadi. Lekin shunisi ham aniqki, agar mamlakatimizda sportga, ayniqsa, xotin-qizlarning sport bilan shug'ullanishiga shu qadar katta e'tibor qaratilmasaydi bugun bu natijalarga erishmagan bo'lardim.

Paralimpiya o'yinlari — haqiqiy kurash maydoni. Ushbu musobaqada dunyoning eng kuchli sportchilari bilan bellashish va medal qo'lga kiritish faqatgina omad emas, balki yillar davomidagi mashaqqatli mehnatlarimizga ham bog'liq. Har bir mashg'ulot, har bir harakat, har bir qiyinchilik sportchini shunday g'alabaga yaqinlashtiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda sportga qaratilayotgan e'tibor bizga mehnat qilishga undab, katta motivatsiya bermoqda. Xususan, xotin-qizlarning sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan imkoniyatlar men kabi har bir yosh qizning qalbidagi yuksak ishonch paydo qiladi. Mening ham yutuqlarim shunday ishonchning natijasi, desam adashmagan bo'laman.

Biz uchun maxsus sport majmualari qurilmoqda, malakali mutaxassislar jalb qilinaypti, xalqaro musobaqalarda ishtirok etish uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Bularning barchasi sportchilar uchun katta dalda.

Men uchun hozirgacha erishgan natijalarim — boshlanishi. Keyingi maqsadim — Paralimpiya o'yinlarining oltin medaliga sazovor bo'lish. Buning uchun yanada ko'proq mashq qilishim,



Shahina YIGITALIYEVA, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi

o'zim ustida ishlashim kerak. Sport orqali angladimki, inson o'z oldiga maqsad qo'ysa va tinimsiz harakat qilsa, hech qanday mashaqqat uni to'xtata olmaydi.

Yurtimizdagi har bir tengdoshimga bunday deyshini istardim: orzu qilishdan qo'rqqmang! Sport insonni kuchli qiladi, har qanday qiyinchilikni yengishga o'rgatadi. Berilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, o'z yo'lingizni toping. Ishong, barchamiz birgalikda harakat qilsak, vatanimiz bayrog'ini bundan ham yuksaklarga olib chiqqa olamiz!

Fursatdan foydalanib, mamlakatimizdagi barcha xotin-qizlarni, onalarni, fidoyi ustozlarni o'yinlarining oltin medaliga sazovor bo'lish. Buning uchun yanada ko'proq mashq qilishim,





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Zarrabin

IJTIMOIY XIZMATNING

TAYANCH NUQTASI

INSONLARGA O'Z IMKONIYATINI ANGLATA OLIHDA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
IJTIMOIY HIMOYA MILLIY
AGENTLIGI

Yangi O'zbekistonda eng katta islohotlardan biri, shubhasiz, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar bo'ldi. Dastlab "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" joriy etilib, aholining muayyan qatlamiga zarur ko'mak berildi. Bugunga kelib, bunday qo'llab-quvvatlov yangi bosqichga olib chiqildi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu agentlikning e'tiborga molik ishlaridan biri psixologik yordamning joriy etilishidir.



resursi bilan jamiyatga moslashuvchanligini ta'minlash borasida ishlayapmiz. Ijtimoiy himoya milliy agentligi dastur ijrosi bo'yicha "Farovon oila" trening dasturini yo'lga qo'ydi. Uning dastlabki bosqichlaridayoq yaxshi ko'rsatkichlarga erishdik.

Masalan, ilk sa'y-harakatni o'tgan yil oxirida Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanida boshlagan edik. Ushbu jarayonda asosiy e'tiborni insonlarning his-tuyg'ularini boshqarish, oilaviy munosabatlarni yaxshilash, jamiyatdagi muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yishga qaratdik. Shunda inson tezroq ijtimoiylashadi. Agar odamda salbiy emotsiyalar kuchli bo'lsa, ijtimoiy izolyatsiyaga tushib qolsa, hayotdagi maqsadlarini ham unutadi. Bu psixologiyada stigmatsiya deyiladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi orasida bunday holat tabiiy ravishda ko'p kuzatiladi. Shu bois, ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqib ish tutyapmiz.

Keling, aniq natijalarni bilish uchun hayotiy misollarga to'xtalsak. Masalan, o'zinni hayron qoldirgan holat Toshkent viloyatida sodir bo'ldi. Bir fuqaro (ismini sir saqlasak) shu vaqtgacha uy olish borasida davlat idoralariga juda ko'p murojaat qilgan. Boshqacha aytganda, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan.

Fuqaro bir xonalni uyda yashaydi. Ijtimoiy holati ham shunga yarasha. Uning psixologiyasida katta uyga ega bo'lsam, muammolarim yengillashadi, degan qarash o'rmashtirib qolgan. Shu bois, hokimlik tekni uy bilan ta'minlan, deydi. U bilan suhbatlashib, oilasi bilan yaqindan tanishdik. Oilada turmushdan ajrab kelgan qiz, o'g'il va nevaralar bor. Ya'ni oilasida mehnatga layoqatli insonlar yetarli. O'zining imkoniyati cheklangan, nogironligi sabab nafaqada. Lekin o'zi ham mehnatga, tikuvchilik qilib

Ijtimoiy xizmatlar milliy agentligi tizimidagi psixolog xodimlar doim malaka oshirish kurslarida o'qib, bilim va ko'nikmasini mustahkamlab boradi. Masalan, o'tgan yil oxirida xalqaro ekspertlarni chaqirib, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami bilan qanday ishlash, ularga qay yo'sin konsultatsiya berish, ijtimoiy xodim, shu tizimdagi psixolog qanday kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerakligi borasida treninglar o'tildi.

pul topishga layoqatli. Ushbu fuqaro va oilasi bilan ishlash jarayonida ularning hayotiy qadriyatlarini, iqtisodiy ko'nikma va bilimlarini shakllantirishga e'tibor qaratdik. Kuchli jihatlarni ko'rsatib berishga urindik.

Yana bir jihat shuki, oilada nizo bor ekan. Masalan, ona-bola munosabati mo'tadil emas. Bu bevosita psixologik muammo. Ya'ni muloqot ko'nikmasi yo'qligi uchun oilada tarqoqlik vujudga kelgan. Nogironligi bor ona, turmushdan ajrashgan qiz va uyga egalik qiladigan o'g'ilning kichkina boshpanada joylashishi... holatni tasavvur qilyapsizmi?!

Xullas, ular bilan bir oy shug'ullandik. Natijada fuqaro farzand tarbiyasidagi xatolarini angladi. Ularning barchasi o'zaro muloqotdagi kamchiliklarini tushundi. Butun oila maqsadga erishishida ularning har biri qanday vazifaga ega ekan, kim nima qilishi kerakligini anglab yetdi.

Natijada oila daromadini oshirib, subsidiya asosida uy olishi mumkinligini tushundi. Shu tariqa bitta oilada hamjihatlik paydo bo'ldi. Bu eng muhim faktor. Oila a'zolarining har biri kam bo'lsa ham daromad topadi. Umumiy maqsadi — uy olish. Ammo o'sha hamjihatlik yo'qligi sabab ayol tinimsiz davlat idoralaridan uy so'rab kelgan. Psixologik yordamdan so'ng o'g'il ham, turmushdan ajrab kelgan qizi ham, hatto nogironligi bo'lgan ona ham ishlash, pul yig'ib uy oladigan bo'ldi. Ish samarasini bilish uchun ushbu fuqaroning fikri bilan qiziqdik.

"Shunchalik holatga tushib qolgan ekanmanki, o'zining kuchli jihatlarni bilimgan, farzandim bilan munosabati ham to'g'ri yo'lga qo'ya olmagan ekanman. Vaholanki, unga mehr berib, mehr olishim kerak ekan. Oilamizda tinchlik hukm sura boshladi. Bu bevosita sog'lig'imga, nabiralarni tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilyapti. Oldimga maqsad qo'ydim: farzandlarimga ta'lim berib, maktabda yaxshi o'qishiga harakat qilaman. Daralarini kuzatib boraman. Umid qilamanki, ular oilamizga katta muvaffaqiyatlar olib keladi", dedi. Bu — bitta oila bilan bir oy shug'ullanganimiz orqali erishilgan natija. Shunchaki gaplar emas, aniq ilmiy asosda olib borilib, oilaning har bir a'zosi bilan alohida shug'ullangach, erishilgan natija. Endi tasavvur qiling: jamiyatda bunday oilalar qancha? Mana shuning o'ziyoq bugun ijtimoiy himoya tizimida psixologik yordam qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda aniq raqamlarga murojaat qilsak. Masalan, o'tgan yilda psixologlarimiz ijtimoiy himoyaga muhtoj 36 ming 343 kishiga xizmat ko'rsatgan. Bular orasida voyaga yetmaganlar ham bor. Yana bir jihat: xizmatdan foydalanilganlar ko'pchiligini ayollar tashkil etadi. Ya'ni 29 ming 946 ayol va 6397 erkak psixologik yordam olgan.

Bu raqamlar joriy yilda oldimizga juda katta vazifalar qo'yadi. Savol tug'iladi: nega erkaklar ayollarga nisbatan kam murojaat qilgan? Bunga erkaklarning yordamga muhtoj emasligi sababmi yoki boshqa omillar bormi? Yoki ayollarni qinyayotgan, ulargagina xos muammolar nimanidan iborat? Bunday savollarga taxminiy javoblarimiz bor, albatta. Ammo real tajriba yana yangi qirralarni ochishi, biz bilmaydigan jihatlarni ko'rsatishi, shu bois, ushbu xizmatlarni mamlakatning barcha hududida amalga

oshirib, fuqarolarning ruhiy holati, psixologik yordamga ehtiyojini har tomonlama tahlil qilib bormoqdamiz.

— **Psixologik yordamga muhtoj odamlar qanday aniqlanadi?**

— Avvalo, fuqarolar bizga ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimiz yoki bevosita o'zi yashayotgan hududdagi ijtimoiy xizmat xodimi orqali murojaat qilishi mumkin. Bunda shaxsning murojaati sir saqlanishi kafolatlangan.

— **Lekin hamma ham murojaat qilavermaydi. Bizda dardini ichiga yutish, o'tib ketadi deb yurish odati bo'...**

— Aynan shu sabab har bir mahalladagi ijtimoiy xodim va psixolog chambarchas bog'langan. Bitta tizimda yaxlit ishlash yo'lga qo'yilgan. Ya'ni ijtimoiy xodim mahallalarda yurganda aholini jiddiy o'rganadi, kuzatadi. Odamlar orasida psixologik yordamga muhtojlarni aniqlaydi. Ijtimoiy xodimlar birlamchi psixologik ko'nikmaga ega bo'lgani uchun buni muloqot jarayonida aniqlashi mumkin. So'ng ular professional psixologlarni to'g'ridan to'g'ri o'sha xonadonga yo'naltiradi. Ya'ni fuqaro psixolog qabuliga emas, mutaxassis yordamga muhtoj odamning oldiga boradi.

Psixologik ko'mak muayyan muddat talab qiladi. Shu sabab, mutaxassis shunchaki borib, vaziyatni ko'rib qaytib kelmaydi. Holatiga qarab, o'sha oila, shaxs bilan bir-ikkki oy shug'ullanadi. Keyin natijaga to'la ishonch hosil qilish uchun shaxsni olti oygacha kuzatadi. O'tmi kelganda xalqimizga xos bir jihati aytib o'tish kerak: biz psixologik yordamni bir oz noto'g'ri tushunamiz. Shuning uchun uni chetlab o'tishga harakat qilamiz. Shu bois, ijtimoiy xodimlar mazkur kontingentni aniqlab berishi juda muhim. Ha, ishimizda ijtimoiy xodim aniqlovchi, yo'naltiruvchi, monitoring qiluvchi vazifasini o'taydi.

Yana bir gap: ijtimoiy muammoga yo'liqqan oilaga nafaqat tibbiy, psixologik, balki huquqiy yordam ham bir vaqtning o'zida



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



oshirib, fuqarolarning ruhiy holati, psixologik yordamga ehtiyojini har tomonlama tahlil qilib bormoqdamiz.

— **Psixologik yordamga muhtoj odamlar qanday aniqlanadi?**

— Avvalo, fuqarolar bizga ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimiz yoki bevosita o'zi yashayotgan hududdagi ijtimoiy xizmat xodimi orqali murojaat qilishi mumkin. Bunda shaxsning murojaati sir saqlanishi kafolatlangan.

— **Lekin hamma ham murojaat qilavermaydi. Bizda dardini ichiga yutish, o'tib ketadi deb yurish odati bo'...**

— Aynan shu sabab har bir mahalladagi ijtimoiy xodim va psixolog chambarchas bog'langan. Bitta tizimda yaxlit ishlash yo'lga qo'yilgan. Ya'ni ijtimoiy xodim mahallalarda yurganda aholini jiddiy o'rganadi, kuzatadi. Odamlar orasida psixologik yordamga muhtojlarni aniqlaydi. Ijtimoiy xodimlar birlamchi psixologik ko'nikmaga ega bo'lgani uchun buni muloqot jarayonida aniqlashi mumkin. So'ng ular professional psixologlarni to'g'ridan to'g'ri o'sha xonadonga yo'naltiradi. Ya'ni fuqaro psixolog qabuliga emas, mutaxassis yordamga muhtoj odamning oldiga boradi.

Psixologik ko'mak muayyan muddat talab qiladi. Shu sabab, mutaxassis shunchaki borib, vaziyatni ko'rib qaytib kelmaydi. Holatiga qarab, o'sha oila, shaxs bilan bir-ikkki oy shug'ullanadi. Keyin natijaga to'la ishonch hosil qilish uchun shaxsni olti oygacha kuzatadi. O'tmi kelganda xalqimizga xos bir jihati aytib o'tish kerak: biz psixologik yordamni bir oz noto'g'ri tushunamiz. Shuning uchun uni chetlab o'tishga harakat qilamiz. Shu bois, ijtimoiy xodimlar mazkur kontingentni aniqlab berishi juda muhim. Ha, ishimizda ijtimoiy xodim aniqlovchi, yo'naltiruvchi, monitoring qiluvchi vazifasini o'taydi.

Yana bir gap: ijtimoiy muammoga yo'liqqan oilaga nafaqat tibbiy, psixologik, balki huquqiy yordam ham bir vaqtning o'zida

ko'rsatiladi. Masalan, shaxsda o'ziga ishonch uyg'otish, oilaviy munosabatlarni yaxshilashda psixologlar yordam bersa, kelishmovchilikning huquqiy oqibatlarini yoki hokimlikdan kutilayotgan yordam qanchalik asosli ekanini huquqshunoslar tushuntirib beradi. Ya'ni bitta oilaning ijtimoiyligini ta'minlash uchun yaxlit tizim ishlaydi. Maqsad shu oilani murakkab vaziyatdan olib chiqishga qaratilgan. Yangi O'zbekistonning qiyofasi qayerda ko'rinadi, desangiz, shularni aytib bergim keladi. Bu tom ma'noda inson qadriga, uni ulug'lashga qaratilgan sa'y-harakatlardir.

— **Bu yerda asosiy vazifa baribir ijtimoiy xodim zimmasida qolyapti. Ijtimoiy xodim kontingenti ko'payib ketaverishidan xavotir olmaydimi? Masalan, naml muammoli oilalar haqida xabar beraversam, mahallamda ko'rsatkich yomon bo'lsa, ishim salbiy ko'rinishda deb holatni yashirish kuzatilmaydimi?**

— Yo'q, oldimizga raqamlar ortidan quvish emas, natijaga erishish vazifasi qo'yilgan. Shu sabab, ijtimoiy xodim qancha ko'p muammoli aniqlasa, shuncha yaxshi ishlayapti deb bilamiz. Shuning uchun xizmat turlari ko'paytirilib, joylarda xodimlarga ehtiyojini qoplash borasida ham agentligimiz tinimsiz izlanish olib bormoqda.

— **Demak, qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.**

— Ha. Hozirgacha nafaqa olib kelgan, ammo nogironligi bo'lmagan ko'plab shaxslarni aniqladik. Ayni paytda ijtimoiy ko'mak olmagan, lekin yordamga muhtojlar ham topildi. Bularning barchasi ijtimoiy xodimlarning mahallama-mahalla yurgani sabab aniqlandi. Masalalar hal etildi. Maqsadimiz — shunday insonlarni topib, tezroq jamiyatga qo'shish, ijtimoiylashuvini ta'minlash, sportga, ishga jalb etish.

Ijtimoiy xodim nafaqat ish bajaruvchi, balki insonlar ruhiyati, hayotini, demak, jamiyatni o'zgartirishga katta hissa qo'shadigan shaxs. Bu har bir xodimga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Bu mas'uliyat statistik raqamlardan qochishga emas, ishlashga, qanday og'ir qatlamda bo'lmagan, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan.

— **Hozir ishlayotgan psixolog kadrlarning malakasi qay darajada? Istaymizmi-yo'qmi xorij tajribasini o'rganamiz. Uni o'zimizga moslashtirish qanday kechayapti?**

— To'g'ri savol berdingiz. Biz xalqaro tajribani o'rganamiz. Chunki boshqalar bu jarayondan o'tgan. Ayni paytda ushbu tajribani o'zlashtirishimiz, milliy muhitga moslashtirish zarur. Bu borada o'rganishlar olib boryapmiz. Ilmiy ishlar qilyapmiz. O'yashimcha, qisqa muddatda juda katta ilmiy asos yaratib olamiz. Chunki agentlik tizimida ishlash istagidagi psixologlar soni kunma-kun oshib bormoqda. Bir gal Toshkent shahridagi Bektemir tumanida bitta o'runga 75 nafargacha nomzod ariza

topshirdi. Bu — kuchli raqobat, shunga yarasha malakali kadrlarni saralab olish imkoni, degani.

Nomzodlar bilan suhbat chog'ida, avvalo, bu tizimga qiziqish yuqori ekan ma'lum bo'ldi. Ulardagi qiziqish faqat ish topish, yaxshiroq maosh emas, balki rivojlanish, o'z kasbining ustasi bo'lish istagi bilan bog'liqlik kishini quvontiradi. Chunki psixolog ko'proq odamlar bilan ishlashi, turfa jarayonlarni ko'rishi, aholining har xil qatlamini o'rganishi kerak. Bizning tizim aynan shu imkoniyatni bergani uchun psixologlar Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimida ishlashni istaydi. Ular bu yerda insonlarga yaxshilik yo'lida xizmat qilib, professional ko'nikmasini oshiradi. Shunga tayanib aytdimki, yaqin kelajakda aholiga psixologik yordam berish borasida juda katta maktabga ega bo'lamiz.

Ijtimoiy xizmatlar milliy agentligi tizimidagi psixolog xodimlar doim malaka oshirish kurslarida o'qib, bilim va ko'nikmasini mustahkamlab boradi. Masalan, o'tgan yil oxirida xalqaro ekspertlarni chaqirib, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami bilan qanday ishlash, ularga qay yo'sin konsultatsiya berish, ijtimoiy xodim, shu tizimdagi psixolog qanday kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerakligi borasida treninglar o'tildi.

Bundan tashqari, psixologlarning bilim va ko'nikmasi muntazam monitoring qilinib, har chorakda psixologlar ko'rsatayotgan xizmatlar baholab boriladi. Shu orqali hududlar bo'yicha qaysi toifadagi ishlar ko'proq kuzatilayotgan bo'lsa, mutaxassislarni o'sha tendensiyaga bo'yicha ko'proq ishlashga yo'naltiramiz. Buning uchun maxsus malaka oshirish institutimizda modullar ishlab chiqilgan. Barcha psixolog onlayn kabinet orqali kirib, undan foydalana oladi. Qisqasi, ham uchrashuvlar, ham keys menejment orqali mutaxassislarimizning malakasini muntazam oshirib boryapmiz. Shu orqali o'zimizning kuchsiz jihatlarni aniqlab, bartaraf etish choralarini ko'rib borilmoqda. Natijada psixologlarimizda professional o'sish kuzatilyapti.

— **Jamiyatimizda asosan qaysi toifada psixologik yordamga ehtiyoj ko'proq?**

— Statistika bo'yicha, asosiy ishimiz imkoniyati cheklangan insonlar bilan bog'liq. Ular bilan nafaqat individual, balki oilasi bilan ham ishlaymiz. Ya'ni nogironligi bo'lgan shaxs bilan to'g'ri munosabat o'rnatish, qanday qo'llab-quvvatlash kerakligi haqida oila a'zolariga tushuncha beramiz. Chunki tajribamizda nogiron farzandiga "Bu nogiron, faqat etalab ovqat yesa, kechki payt uxlasa bo'ldi", deb qaraganlarga ham duch keldik. Nogironligi bo'lgan shaxsga qarash ham muayyan ko'nikma, bilim talab qiladi. Shuning uchun zarur holatda oilalardagi psixologik muhitni yaxshilashga harakat qilamiz, munosabatlarni o'rgatamiz. Shuningdek, boshqa yo'nalishlarimiz ham bor. Vasiylikning ijtimoiylashuvi, og'ir kasallikka uchraganlarga xastalikni yengishda ko'maklashish, oilaviy nizolar, tazyiq va zo'rvonlikka qarshi kurashish shular jumlasidan. Umuman, barcha toifadagi insonlarga ichki imkoniyatini ochib berib, ijtimoiylashuvini ko'maklashish, jamiyatning faol a'zosi sifatida aylanish eng dolzarb vazifamiz.

Bu borada ham yutuqlarimiz bor. Masalan, Quyi Chirchiq tumanida yashovchi ayol 2 farzandidan voz kechish arafasida turgan edi. U bilan ishlashimiz natijasida bolalar oilada saqlab qolindi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi yurtdoshlarimizga bepul psixologik yordam berib, oilalarni, jamiyatimizni "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan g'oya atrofida birlashtirish yo'lida xizmat qilishga bel bog'lagan.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Boboravshan G'oziddinov suhbatlashdi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.
37346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy